

**Tasviriy effektlar va postprodakshnda
ililg‘or xorijiy tajribalardan
foydalanish**



**O'zDismi huzuridagi Tarmoq markazi
"Kino-teleoperatorlik"**

Professor v.b. Iqbol Meliqo'ziyev

Модулнинг ўқув-услубий мажмуаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг 2023 йил 25 августдаги 391-сонли буйруғи билан тасдиқланган ўқув дастури ва ўқув режасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Tuzuvchi:

О‘зДСМИ “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini mudiri, professor v.b. Iqbol Meliqo‘ziyev

Taqrizchilar:

Xorijiy ekspert: JOONHWA JIN-Janubiy Koreya “DONG-A” media va san’at instituti professori.

A.Ismoilov – О‘зДСМИ “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini professori

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	15
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	22
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	71
V.	KEYSLAR BANKI.....	83
VI.	GLOSSARIY.....	86
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	93

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Tasviriy effektlar va postprodakshnda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining maqsadi:

-pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

“Tasviriy effektlar va postprodakshnda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining vazifalari:

“Kino-teleoperatorlik” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

-“Kino-teleoperatorlik” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

“Tasviriy effektlar va postprodakshnda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- ta‘lim jarayonidagi zamonaviy texnik ta‘minot, filmlarni tasvirga olishning ilg‘or uslubiyotlarini;

- fotokompozitsiya modulini o‘qishidagi an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlarni taqqoslashni;

- maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari va usullarini;

- maxsus montaj bo‘yicha dunyo kinematografiyasi tomonidan foydalanilayotgan hozirgi vaqtdagi murakkab montaj dasturlarini;

- tasviriy obraz yaratish ustida ishlashning zamonaviy texnologiyalarini;

- fototasvirga olishda ilg‘or xorijiy tajribalarni;

- televideniye va kino san‘ati sohasida turli animatsion film va multfilmlar yaratishni;

- montaj sistemalari, uning texnik imkoniyatlarini;

- Respublika va jahon kino-teleoperatorlik maktablaridagi innovatsiyalarni **bilishi** kerak.

- fotokompozitsiya modulini o‘qitishda zamonaviy metodlarning afzalliklarini tahlil qilish;

- dramaturgik tasviriy yechim, tarixiy, arxitektura, tabiat va turli xil janrdagi fotografiyalarni ilmiy-ijodiy tahlil etish;

- fotokompozitsiya fanining ilg‘or xorijiy tajribalaridan foydalanish;

- animatsion filmlarda mavjud tasviriy imkoniyatlardan foydalanish;

- turli montaj sistemalari, uning texnik imkoniyatlari hamda amaliyotda qo‘llash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

- milliy kino-teleoperatorlik maktabi ijodiy metodlarini ajrata olish;

- barcha tasvirga olish texnikalaridan mukammal foydalana olish;

- fotokompozitsiyaning yangi qirralarini tahlil qilish;

- kinokadr yaratishda shakllanib kelgan o‘quv-amaliy jarayonlarini to‘liq o‘zlashtirish;

- ish yuritishning ilg‘or, zamonaviy usullaridan foydalana olish;

- kino sohasi tashkilotlarini strategik boshqarish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.
- xorijiy innovatsion yondashuv metodikasini fanga tadbiq qilish;
- uzoq tarixga ega o‘zbek rassomlari ishlari, kompozitsiya yaratishdagi metodlari, tajribalaridan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish;
- fototasvirga olishda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash;
- fotokompozitsiyada yangi kashf etilgan kompozitsion uslublarni amaliyotda ishlatish;
- murakkab jang sahnalarini, ommaviy sahnalarni, katta xoreografik kompozitsiyalarni sahnalashtirish, tasvirga olish jarayonini zamonaviy texnologiyalar yordamida aks ettirish;
- kinematografiyani moliyalashtirishning xorijiy tajribasini ta‘lim tizimiga qo‘llash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Tasviriy effektlar va postprodakshnda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” moduli hozirgi kunda ta‘limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, shuningdek an‘anaviy va zamonaviy dirijyorlik asarlaridan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Tasviriy effektlar va postprodakshnda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Fotokompozitsiya loyihalarini yaratishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash”, “Maxsus va murakkab montajlarda ilg‘or innovatsion va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta‘lim muassasalarida nomoddiy madaniy merosning o‘rganilishini ta‘minlash, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimni baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	nazariy	amaliy	ko'chma
1.	Maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari, usullarini bilish va ulardan foydalana olish	4	2	2	
2.	Kinolarni tasvirga olishning o'ziga xos texnologiyasi	4	2	2	
3.	Kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish	4	2	2	
4.	Maxsus grafika 2D, 3D,5D, 7D multfilm va ommaviy axborot vositalari, televideniye va kino san'ati sohasida turli animatsion film va multfilmlarni yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llash	4	2	4	
5.	Maxsus kino tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari va usullari.	4		4	
6.	Maxsus tasviriy effektlar yaratishda qo'llaniladigan zamonaviy dasturlar.	4		4	
Jami:		26	8	18	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari, usullarini bilish va ulardan foydalana olish

Maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari, usullarini bilish va ulardan foydalana olish. Kino san'ati turlari qatoriga kiruvchi animatsion filmlar ishlab chiqarish. Maxsus yaratilgan grafika-animatsiya yo'nalishlarida badiiy obraz yaratish. Zamonaviy metodlar talab qiladigan, ta'limning umum psixologik fanlardan farqi.

2-mavzu: Kinolarni tasvirga olishning o'ziga xos texnologiyasi

Kinolarni tasvirga olishning o'ziga xos texnologiyasi. O'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish. Yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalardan foydalanish. Ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallarda foydalanishni qoidalariga amal qilish.

3-mavzu: Kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish

Kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish. Talaba bilan ishlanadigan metodlarni zamonaviy texnika orqali qo'llash. O'quv pavilioni, tasvirga olish maydonchasida, dekoratsiyalar bilan ishlash. Tabiiy quyosh nuridan foydalanib epizod olish. O'quv pavilioni, tasvirga olish maydonchasida, dekoratsiyalar bilan ishlash. Tabiiy quyosh nuridan foydalanib epizod olish. Kompyuter dasturlaridan foydalanish. Ochiq darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

4--mavzu: Maxsus grafika 2D, 3D,5D, 7D multfilm va ommaviy axborot vositalari, televideniye va kino san'ati sohasida turli animatsion film va multfilmlarni yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llash

Maxsus grafika 2D, 3D,5D, 7D multfilm va ommaviy axborot vositalari, televideniye va kino san'ati sohasida turli animatsion film va multfilmlarni yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llash. Milliy va jahon kino maktablari va yo'nalishlari yutuqlarini tahlil qilish. Badiiy tafakkur madaniyatini va pedagogik mahoratini shakllantirish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari, usullarini bilish va ulardan foydalana olish

Maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari, usullarini bilish va ulardan foydalana olish. Ushbu fan bo'yicha o'rganilgan bilimlar yakka (amaliy) mashg'ulotlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borish.

Xususan har bir mavzu yuzasidan talaba ma'lum amaliy kinokadr olish. Turli janrlarda maxsus animatsion zamon qahramonlarini yaratish.

2-amaliy mashg'ulot: Kinolarni tasvirga olishning o'ziga xos texnologiyasi

Kinolarni tasvirga olishning o'ziga xos texnologiyasi. Televideniye va kino san'ati sohasida turli animatsion film va multfilmlarni yaratish. Amaliyotda tajribalarni qo'llash. Fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismida, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va axborot resurslari bilan to'la ta'minlash.

3-amaliy mashg'ulot: Kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish

Kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish. Badiiy tafakkur madaniyatini va butungi kunning san'at amaliyotini tanqidiy yondoshuv orqali o'zlashtirish malakasini shakllantirish. O'quv dasturiga kiritilmagan ayrim masalalarni nazariy jixatdan mustaqil tadqiq etish. Keng kamrovli amaliy materialni mustakil tahlil etish. Tanqidiy tahlil, kinooperatorlik san'atini tushunish.

4-amaliy mashg'ulot: Maxsus grafika 2D, 3D,5D, 7D multfilm va ommaviy axborot vositalari, televideniye va kino san'ati sohasida turli animatsion film va multfilmlarni yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llash

Maxsus grafika 2D, 3D,5D, 7D multfilm va ommaviy axborot vositalari, televideniye va kino san'ati sohasida turli animatsion film va multfilmlarni yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llash. Milliy va jahon kino maktablari va yo'nalishlari yutuqlarini tahlil qilish. Badiiy tafakkur madaniyatini va pedagogik mahoratini shakllantirish.

5-amaliy mashg'ulot: Maxsus kino tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari va usullari.

Maxsus kino tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari va usullari. Mustaqil ta'lim tinglovchilarning fan doirasidagi bilimlarini yanada

chuqurlashtirish. San'atga oid ilmiy manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishni rivojlantirish. Jahon animatsion filmlarini tahlil qilib borish. Yakka mashg'ulotlar talabada tajribalar vositasida o'z ijodiy yo'nalishini aniqlash va ko'nikmalarni shakllantirish.

6-amaliy mashg'ulot: Maxsus tasviriy effektlar yaratishda qo'llaniladigan zamonaviy dasturlar.

Maxsus tasviriy effektlar yaratishda qo'llaniladigan zamonaviy dasturlar. Muntazam ravishda rahbar nazorati ostida shug'ullanib borish. Butungi kunning san'at amaliyotini tanqidiy yondoshuv orqali o'zlashtirish malakasini shakllantirish. O'quv dasturiga kiritilmagan ayrim masalalarni nazariy jixatdan mustaqil tadqiq etish. Keng kamrovli amaliy materialni mustakil tahlil etish. Tanqidiy tahlil, kinooperatorlik san'atini tushunish.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko'chma mashg'ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

IV. Malakaviy attestatsiya

Tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), yakuniy test sinovlari hamda Attestatsiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda

o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo'yicha kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o'tkazadi. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig'ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo'yidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim:

- oliy ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni, oliy ta'lim davlat ta'lim standarti, klassifikator, malaka talablari, shuningdek, o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv dasturini takomillashtirish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejalari va fanlar dasturlarini shakllantirish;

- bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning zamonaviy metodlarni qo'llash, shuningdek, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish, o'quv fanlari mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslari asosida tashkil etish, o'quv mashg'ulotlarining har xil turlarini (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya

mashg'ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo'yicha amaliy mashg'ulotlar) tashkillashtirish;

– talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati; talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash; iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;

– oliy ta'limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

– mustaqil ta'lim olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalaniladi.

**II. MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

Namuna: Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbuli, ya‘ni vaziyatni normallashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

“Keys-stadi” metodi

«FSMU» metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys

harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni (kichik va individual guruhlarda aniqlash)

2. “Monna-Liza” portretini ishlashda qahramonning ruhiy holatini ochib berishda rassomning mahoratini aniqlang. (guruhlarda tahlil vozma voki oq‘zaki.)

Keys. Leonardo da Vinchi “Monna Liza” kartinasini chizayotganda asar qahramonining ichki dunyosini ochib bermaganida asar kartina darajasiga ko‘tarilarmidi?

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Tarixiy yoki maishiy mavzudagi ko‘pqomatli kompazitsiya asarining g‘oyasi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			

“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo’llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg’ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo’lgan so’zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o’qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tulariq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o’z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blits-o’yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo’llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o’rganish talab etiladi. Shundan so’ng, ishtirokchilarga to’g’ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash

kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Maxsus animatsion film tasvirga olishning eng zamonaviy texnologiyalari, usullarini bilish va ulardan foydalana olish

REJA

1.1. Kino ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari

1.2. Maxsus effektlar

1.3. Maxsus effektlarni yaratishda raqamli texnologiyalar

Tayanch soʻzlar: Oʻzbek kinosi, kinematografiya, tarixiy janr, kompozitsiya, tasviriy yechim, ifodalilik.

1.1.Kino ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari.

Tasvirni bevosita raqamli HD formatida yoki kinoplyonkaga tushirish mumkin. HD raqamli formatda suratga olish 35 mm.li kino tasmasida kinoni suratga olish jarayoni bilan oʻxshash boʻlibgina qolmay, bir qancha afzalliklarga ham ega: maydonchadagi suratga tushirish texnikasini tezkor ravishda tayyorlanishini taʼminlaydi, shuningdek, suratga olingan material sifatini oʻsha zahotiyoq nazorat qilib koʻrish imkonini beradi. Kinotasma bilan ishlaganda post-prodakshn bosqichida maxsus tasvirlarni va titrlarni yaratish uchun skanerlashtirish, ranglarni muvofiqlashtirish uchun tasvirni 2K (Digital Intermediate) raqamli formatiga oʻtkazish talab etiladi.

Xomaki montaj (off-line) – suratga olishning har ikki turida ham suratga olingan dastlabki materialni kompyuterda yoʻnalishdan tashqari raqamli montaj qilish hamda EDL (montaj varaqalarini tayyorlash) uchun standart video formatiga oʻtkazishingiz lozim boʻladi.

Toza montaj – bu aynan negativ tasmani montaj varaqasi boʻyicha montaj qilishning oʻzginasi, faqat HD formatida bu ish EDL boʻyicha avtomatik jarayon tarzida kechadi va 8 soatdan ortiq vaqt olmaydi. Suratga olishning raqamli formatida ishlaganda siz xomaki montaj jarayonida qoʻshimcha tasvir vositalaridan: ohista almashinuv, rapid usullaridan ishonch bilan foydalanishingiz mumkin, keyin ular HD ga avtomatik tarzda joylanib qoladi. Titrlar va kompyuter grafikasi bir vaqtning oʻzida tayyorlanadi, raqamli formatda ularning imkoniyati ham nihoyatda keng.

Ranglarni muvofiqlashtirish (Colour correction) – hozirgi kunda Rossiyada kino tasmasiga suratga olinayotgan badiiy filmlarning 50 foizidan ortigʻida Digital Intermediate ranglarni muvofiqlashtirish texnologiyasidan foylanilmoqda, yaʼni kinotasmasi kompyuterda 2K/HD formatida raqamlashtirilmoqda, chunki ranglarni muvofiqlashtirishning laboratoriya usulining imkoniyatlari ranglarni raqamli kompyuterda DaVinci, Pogle, Discreet Lustre uskunalari yordamida muvofiqlashtirishga qaraganda ancha cheklangan.



DaVinci Ranglarni muvofiqlashtirish (Colour correction) dasturida qayta ishlangan tasvir.

Mastering – filmning oxirgi ko‘rinishini Dolby ovozida raqamli formatda tayyorlash, bu uni kinozalda katta ekranda oldindan, kinotasvir nusxasini nashr etmasdan sifat jihatidan ko‘rib chiqish imkonini ta‘minlaydi. Bu sharoit tayyor mahsulotning salohiyatini baholash va ekranga chiqariladigan nusxalarning hajmini belgilab olish yoki filmni faqat video prokat uchun DVD vositasida chop etish qarorini qabul qilish va h.k. imkonini beradi. Oxirgi holatda tasvirni kino tasmasiga ko‘chirish talab etilmaydi.

Tasvirni kino tasmasiga ko‘chirish

Ranglarni raqamli muvofiqlashtirgandan keyin, suratga olishning har qanday usulida ham, film raqamli saqlagichdan 35 mm.li kino tasmasiga ko‘chirib olinadi. Bunda zarradorligi kichik darajadagi intermediate-tasmadan foydalanish tavsiya etiladi.

Siz o‘z loyihangizni amalga oshirish uchun qanday texnologiyani qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishingiz bilanoq, shubhasiz, ishlab chiqarish uchun faqat raqamli texnologiyadan foydalangan ma‘qulmi yoki tasmali va raqamli

texnologiyadan uyg'un holda foydalanishmi degan masala bilan bog'liq bir necha amaliy muammolarga to'qnash kelasiz.

Quyida kino ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari: suratga olish, montaj, ranglarni muvofiqlashtirish va tasvirni tasmaga ko'chirish to'g'risida eng muhim axborot keltiriladi.



Canon 5D mark III kamerasi

HD ga suratga olish nimasi bilan farq qiladi?

Ko'p jihatlariga ko'ra HD ga suratga olish xuddi kino tasmasiga suratga olish kabi bajariladi. HD texnologiyasining eng muhim farqi shundaki, suratga olish maydonchasida yuksak sifatli monitor (videonazorat) ixtiyoringizda bo'ladi va u tasvirning sifatini xuddi post-prodakshnga kelgan vaqtingizdagidek ko'rish imkonini beradi. Monitor ranglar haroratiga ko'ra tashqi yoritish darajasiga muvofiqlasha oladi, shu sababli, kamerada yozib olinayotgan tasvirga mutlaqo mos keladi. Joyiga chiqib suratga olingan materialni ko'rib chiqish, bir vaqtning o'zida xomaki montaj o'tkazish uchun ixcham montaj qilish apparatidan foydalanish imkoniyati mavjud.

"HD kamerasida ishlashni o'giriluvchan tasmada ishlashga nisbat berish mumkin. O'giriluvchan tasmaning qonuniyatlarini bilgan kishi lentaga ko'nikishi oson. HD lentasi nihoyatda keng imkoniyatlar va salohiyatlarga ega. Shu sababli, operator o'z diqqatini tasvirda nurlarning yaxshi aks ettirilishiga qaratishi lozim, soylarni esa keyinchalik, ranglarni muvofiqlashtirish chog'ida tiklash mumkin bo'ladi. Ayniqsa, tasvirni "ortiqcha nurlantirib" yubormaslik, yoritilish optimal darajada bo'lishiga erishish muhim, aks holda tasvirni tarkib toptiruvchi o'ta nurlantirilgan piksellar o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Suratga olish vaqtida biz HD-ossillografidan foydalandik".

Dmitriy Mishin, operator

Tom ma'nodagi, ya'ni kompyuter grafikasi ko'magisiz amalga oshiriladigan kombinatsiyalangan tasvirga olish usullari o'z rivojining eng yuqori cho'qqisiga

Amerikada Stenli Kubrikning “2001: Samoviy odisseya” kartinasida ko‘tarildi. Mutaxassis Duglas Trambull o‘zigacha yashab ijod qilgan mutaxassislarning barcha yutuqlari va kashfiyotlaridan to‘liq foydalangan holda koinot sarxadlariga ildam odimlayotgan insoniyat sivilizatsiyasining ertangi kunini maksimal haqqoniylik bilan ekranda ko‘rsatib berishga harakat qildi. U kinotasma yordamida amalga oshirish mumkin bo‘lgan barcha mavjud usullarni o‘rgandi, Melesning izlanishlarini mukammallik darajasiga ko‘tarib juda ko‘plab kinotryuklarni kashf etishga erishdi.



“2001: Samoviy odisseya” filmidan lavxa

“2001: Samoviy odisseya” filmi 1969 yilda ekranlarga chiqqan bo‘lsada unga tayyorgarlik ishlari bir necha yil ilgariroq boshlangan. 1965 yilda XXI asrga kelib kosmik kemalar qanday bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida tasavvur ham qila olishmagan albattada.

Lekin, Stenli Kubrik allaqachon perfeksionist¹ik qarashlari bilan mashhur bo‘lib ulgurgandi. Shuning uchun ham hech kim kelajak samoviy kemalarining nazariy jihatdan qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida baxslashib o‘tirmadi. Shunday bo‘lsada Kubrik NASA fazoviy tadqiqotlar boshqarmasi mutaxassisi Garri Lendj va Frederik Ordueyni hamkorlikka taklif qilib ish boshladi.

Sekin astalik bilan ijodiy guruh tuzilib mutaxassislar nazoratida film detallari va dekoratsiya chizmalari chiza boshlandi. 1965 yil aprelida konsept-dizayer Entoni Masters Garri Lendjning chizmalari asosida real dekoratsiyalar va maketlar qurilishini boshladi.


Maxsus effektlar guruhi esa ishni avgustdan boshlashdi. Kubrik filmga yosh va iste’dodli mutaxassislar Duglas Trambull, Bill Pirson va Richard Yurisichlarni taklif etdi.

Kubrik kema modellarini turli rakurslardan tasvirga olishning imkoni bo‘lishini istardi. “Orion” (uzunligi 1 metr) “Oven” (60 sm), “Oy avtobusi” (60 sm), qariyb 16.5 metr uzunlikdagi “Diskaveri”ning ulkan moddelari yasaldi. O‘z tabiiy

¹ *Перфекционизм* (фр. perfection) – инсон ўзи ва атрофидаги инсонларни мукаммаллаштиришга интилиши унинг ҳаёт мазмуни ва олий мақсади бўлиши керак. www.wikipedia.org электрон энциклопедияси.

o'ldamlarida yasalgan modellar bu "Diskaveri" va ochiq koinotga chiqadigan modullardan biri edi.

U paytlarda hali *xarakat nazorati (motion control)* sistemasi ixtiro etilmagandi. Shunday qilib uzun relslarning ustiga kamera o'rnatilgan va kameraning barcha xarakatlarini "eslab qoluvchi" motor o'rnatilgandi. Kamera oldida kosmik kemalar modellari xarakatlantirilgan paytda modellardagi illyuminatorlar ichidagi yorug'lik o'chirib qo'yilgan holda, faqat tashqi qismlar yoritilgan holatda tasvirga olingan. Kinotasmani ortga qaytarib yana tasvirga olish boshlangan. Bunda illyuminatorlar o'rniga oq ekran qo'yilar va aktyorlar sahnalari avvaldan tasvirga olib tayyorlab qo'yilgan kadrlar *rir-proeksiya* usulida proeksiya qilingan.



Filmdagi "Diskaveri" kemasi va undan chiqayotgan modul maketi.



Oydagi samoviy baza modeli

"Samoviy odisseya" filmini yaratish jarayonida Kubrik va uning hamkorlari ikki turdagi texnologiya prototiplarini yaratdilar va ular keyinchalik maxsus effektlar sohasida keng qo'llanila boshlandi. Lekin bu boradagi mualliflik huquqi "Samoviy odisseya" ijodkorlariga emas, balki "Yulduzlar jangi" filmi ijodkorlariga nasib etdi. Birinchi texnologiya: Kamera *xarakati nazorati* sistemasini 70-yillarda aynan shu film maxsus effektlar ixtirochisi Djon Daykstra mukammal darajada

rivojlantirdi. Daykstraning sistemasida kamera “xotirasi” vazifasini kompyuterlar bajargan bo‘lsa, Kubrik usulidagi “eslab qolish” mexanik usulda bo‘lgan.

Ikkinchi texnologiya – tezkor kadrma-kadr tasvirga olish usuli bo‘lib, undan filmning “Imperiya qarshi zarba beradi” qismida foydalanilgan. Bu holatda tasvirga olish jarayonida obyektning bir oz joyidan siljitish imkoniyati paydo bo‘lib, obyekt xarakatlanayotgan paytda kadrda xosil bo‘ladigan “chaplanib ketish” holatini yaratish va shu yo‘l bilan kadrlarga haqqoniylik berish mumkin bo‘lgan.

“Orion” fazo kemasi illyuminatorlaridan bizga ko‘rinadigan yulduzli osmon metall listlar yordamida yaratilgan. Ular qora rangga bo‘yalib unda yulduzlar vazifasini o‘tovchi turli teshikchalar qilingan va bu teshikchalar ortidan yorug‘lik manbai qo‘yilgan. Bu holatda fazo kemalari xarakatini ularning o‘zini emas balki ana shu metall listlarni xarakatlantirgan holda imitatsiya qilingan.

Filmdagi Oy sayyorasi ko‘rinishlarining ham hammasi haqiqiy foto tasvirlardir. Tasvirga olish jarayonida bir necha bor Oy modelini tayyorlashga urinib ko‘rishgan, lekin bu urinishlarning hammasi zoe ketgan.

Filmdagi vaznsizlik natijasida havoda muallaq suzayotgan ruchka effekti juda oddiy amalga oshirilgan. Ruchka katta oyna bo‘lagiga ikki yoqlama yopishqoq skotch yordamida yopishtirilgandi va tasvirga olish paytida uni sekingina aylantirish, xarakatlantirish mumkin bo‘lgan. Styuardessa esa uni shunchaki oynadan ko‘chirib olib uxlab yotgan passajir cho‘ntagiga solib qo‘ygan xolos.

Film oxirlariga kelib ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan “Yulduzlar darvozasi” ko‘rinishlari slit-scan texnologiyasi yordamida yaratilgan. Bu texnologiyaning e‘tiborli tomoni shundaki, tasvirga olish jarayonida kamera film kanalidagi kadr tuynugiga ingichka tirqishga ega bo‘lgan qopqoqcha qo‘yiladi. Tasvirga olish jarayonida bu tirqishchani kadr o‘rtasigacha surib u yoqdan bu yoqqa xarakatlantiriladi va shu paytning o‘zida tasvirga olinayotgan obyektning ham o‘rnidan qo‘zg‘atilib turiladi. Natijada kinotasmada deformatsiyalangan tasvirlar paydo bo‘ladi. Duglas Trambull aynan shu yo‘l bilan filmning final qismidan joy olgan “Yulduzlar darvozasi” kadrlarini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, rejissyor Stenli Kubrik bu filmni yaratayotgan paytda kompyuter yordamida turli virtual dekoratsiyalar, fazoviy olamlarni modellashtirish u yoqda tursin, hali kompyuter texnologiyalarining o‘zi ham rivojlanib ulgurgani yo‘q edi.

60-x yillarga kelib deyarli barcha janrlardagi filmlarda vizual effektlardan foydalanish sustlashdi. Murakkab tasvirga olish usullariga qiziqish pasaydi va vizual effektlar yaratishning klassik uslublari yangi davr kinosi talablariga tasviriy ifoda vosita sifatida javob bermay qoldi. o‘z navbatida murakkab tasvirga olish usullari texnikasi va texnologiyasi ham takomillashishdan to‘xtadi.

Ko‘pgina rejissyor va operatorlar kombinatsiyalangan tasvirga olish usullariga huddi azob-uqubatli muammodek qarashib o‘z ijodlarida ulardan “nariroq yurish”ni ma’qul ko‘ra boshladilar.

Bu yo‘nalishdagi yangi usullar, yangi texnologiyalar borgan sari kamayib bordi. Bu hol nafaqat Rossiya, balki jahon kinosida ham kuzatildi.

To‘g‘ri, AQShlik tinib tinchimagan kino ijodkorlari bu yo‘nalishda muayyan yangiliklar o‘ylab topishar va amaliyotga tadbiiq etib g‘aroyib filmlarni yaratishga

muvaffaq bo‘lishgan. Biroq, jarayonning umumiy manzarasi esa bu sohada sustlashishni ko‘rsatardi.

1.2. Maxsus effektlar.

Kino san‘ati o‘zining yuz yildan ortiq tarixiy rivojlanish yo‘lida juda ko‘p o‘zgarishlarga, yangilanishlarga yuz tutdi va zamonaviy kino san‘ati darajasiga yetib keldi. Unda turli davrlarda turli avlod ijodkorlari rang-barang janrlarga qo‘l urdilar, o‘zgacha uslublar yaratdilar va turlicha badiiy ifoda vositalaridan foydalandilar. Har bir davrda qilingan o‘zgarishlar, kiritilgan yangiliklar va uslublarning kino san‘atida o‘z o‘rni bor albatta.

Bugungi kunda esa maxsus effektlarsiz kinoni tasavvur qilib bo‘lmay qoldi. Ko‘pchilikda hayrat uyg‘otayotgan maxsus effektlar, mutaxassislarga yaxshi ma‘lumki, bugun yoki kecha paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Aslida uning ildizlari, XIX asrlar oxiriga borib taqaladi.

“Xarakatdagi tasvir” – kinematograf o‘z rivojlanish yo‘lini tomoshagohdan, yarmarka illyuzionlaridan ommaviy ko‘ngilochar tomosha sifatida boshlagan ekan, unda tomoshabinni o‘ziga jalb qiluvchi tomoshaviylik elementlarining, xususan, turli tryuk² va effektlarning bo‘lishi tabiiy holdir.

Bundan maxsus effektlar kino san‘ati bilan u ilk paydo bo‘lgan davrlardan o‘zaro bir butunlikda rivojlana boshlagan va kinoda kompyuter maxsus effektlarining paydo bo‘lishi kinoning san‘at sifatida shakllanishidagi tabiiy rivojlanish jarayonining evolyusion davomi degan xulosa qilish mumkin.

1902 yilda fransiyalik kino arbob J.Meles “Effektli kinolar asri”ga eshikni ochib berdi. U turli kinotryuklarni ixtiro kildi va uni kinorejissuraning kundalik amaliyotiga kiritdi. Yangi davr boshlanib maxsus va murakkab tasvirga olish usullaridan foydalanib kinolar yaratish avj oldi. 1920-1930 yillarda yaratilgan filmlar ichida, janr xususiyatlaridan qat’i nazar, murakkab tasvirga olish usullarining aqalli birortasidan foydalanilmagan biror-bir filmni topish mushkulligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bu holat o‘ziga xos epidemiya darajasiga ham ko‘tarildi.

Maxsus effektlar to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin avvalambor “Maxsus effektlar o‘zi nima?” degan savolga oydinlik kiritib olish maqsadga muvofiqdir.

Maxsus effékt (ingl. special effect, qisq. **SPFX**, **SFX** yoki **FX**) – kinematografiyadagi texnologik usul, yo‘l³. Kinoda, televideniya, turli shoularda va kompyuter o‘yinlarida, foydalaniladi. Asosan oddiy usullarda suratga olishning imkoniyati bo‘lmagan sahnalarni, masalan, olis kelajakdagi kosmik kemalar o‘rtasidagi janglar kabi shunga o‘xshash fantastik tasvirlarni yaratish uchun foydalanilgan.

FX termini ingliz tilidagi abbreviatura bo‘lib special-effects, ya’ni maxsus effektlar ma’nosini bildiradi. **FX** abbreviaturasidagi “**F**” va “**X**” xarflari aslida hech qanday ma’noni anglatmaydi. Amerikancha ingliz tilida yasalgan “4 U” = 4 – four – for, U = you = (sen uchun) qisqartma so‘zi kabi **FX** abbreviaturasi ham **F-eff** va

² Трюк – мохирлик ва эпчиллик билан тез бажарилган ҳаракат; ҳийла, найранг;

³ Wikipedia интернет энциклопедиаси. www.wikipedia.ru Интернет сайти.

X-eks soʻzlarini biriktirgan holda **eff+eks** yaʼni, **effects** – **effektlar**, soʻzi yasalgan. Bu kabi qisqartma soʻzlar yasash gʻarbda ham urfga kirgan.

Maxsus effektlardan yana anʼanaviy usulda tasvirga olish usullari juda katta sarf-harajatlarni talab qilganda, masalan, samolyotni parvoz chogʻida portlab ketishi, yoki tasvirga olish ishlari insonlarga, atrof muhitga kuchli ekologik zarar yetkazishi mumkin boʻlganida, tabiiy sharoitlarda imkonsiz boʻlgan, yaʼni qor boʻronlari, kuchli tornado, zilzila kabilarni ekranda yaratish maqsadlarida foydalaniladi. Bundan tashqari, maxsus effektlardan tasvirga olingan materialni qayta ishlashda, sifatini yaxshilashda, boshqa tasvirlar bilan birlashtirishda va koʻplab boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Maxsus effektlar shartli ravishda asosiy ikki katta sinfga ajratiladi:

- 1) **Vizual maxsus effektlar (VFX)** – optik effektlar (*murakkab tasvirga olish usullari yordamida yaratilgan effektlar*), shu bilan birga kompyuter grafikasi yordamida tayyorlangan effektlar.
- 2) **Mexanik maxsus effektlar – (SFX)** mexanik (*fizik*) effektlar boʻlib, tasvirga olish oldidan materiallarga qayta ishlov berishni nazarda tutadi. Bularga modellar yasash, pirotexnika va texnik moslamalardan, maxsus grimdan foydalanish kabilar kiradi.

Maxsus effektlar oʻzining turlari boʻyicha asosiy toʻrt guruhga boʻlinadi:

1) **Mexanik effektlar** (qoʻgʻirchoqlar, turli xil mexanik mulyaj⁴lar va boshqa barcha mexanik qurilmalar, tasvirga olish maydonchasidagi (animatroniklar⁵));

2) **Optik** (bu qismga kamera yordamida yaratiladigan effektlar, masalan: *naplivlar*⁶, ikki karra yoki koʻp marta ekspozitsiyalash⁷ usullari, turli maskalar va xokazolar kiradi.);

3) **Grim** (*pardoz*) – (tasvirga olish maydonchasida hayoliy (fantastik) qahramonning tashqi koʻrinishi, kiyimlari ustida ish olib borish, turli xildagi lateks niqoblar yaratishni oʻz ichiga oladi);

4) **Raqamli (kompyuter) maxsus effektlar** – kompyuter yordamida amalga oshiriladigan maxsus effektlar. Ular oʻzida nisbatan ancha keng boʻlgan imkoniyatlarni qamrab olib, sunʼiy yomgʻir, shamol yaratishdan tortib to qahramonlarning uch oʻlchamli modellarini yaratishgacha boʻlgan jarayonlarni oʻz ichiga oladi).

Bundan tashqari, **maxsus ovoz va shovqin effektlari (Sound FX)** ham mavjud. Ular ham tasvirlarga nisbatan haqqoniylik xissini kuchaytirib oʻziga xos illyuziya uygʻotish yoʻlida eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Aksariyat hollarda kino yaratish jarayonida sanab oʻtilgan maxsus effektlar turlarining barcha xillaridan turli nisbatda foydalaniladi. Ushbu oʻquv qoʻllanmada

⁴ *Муляж (фр.)* – нарсаларнинг мум қуйиб ясалган ўз катталигидаги нусхаси ёки қолипи.

⁵ *Аниматроникс* – харакатланувчи қўғирчоқлар, муляжлар ва бошқа харакатланувчи техник воситалар.

⁶ *Напльв (рус.)* – оҳиста (аста-секин) алмашинув (экранда бир манзаранинг иккинчи манзара билан секин-аста алмашинуви).

⁷ *Экспозиция (фр.)* – бу ерда ёруғлик таъсирчан материал, яъни плёнкада ёруғлик таъсирида тасвир хосил қилиш маъносида ишлатилган.

ko‘proq kompyuter maxsus effektlari ko‘rib chiqiladi. Biroq bu ishning mohiyatini ochib berishda foydalanilgan filmlarda maxsus effektlarning boshqa turlari ham foydalanilmagan degani emas.

Savollar:

1. Maxsus effektlardan foydalanish va badiiy o‘rni.
2. Filmlar misolida.

1.3. Maxsus effektlarni yaratishda raqamli texnologiyalar

Kameron “Avatar” ni yaratish jarayonida xarakatni yozib olish (qayd etish) sistemasidan foydalandi. Bu sistema aktyorlar ijrosini kompyuter virtual olamida yaratilgan aktyorlarga ko‘chirish imkonini beruvchi yangi texnologiyadir. U aktyorlar harakatini 3D formatda – uch o‘lchamda yozib oladi. Bu texnologiyada tasvirga olish maydoni atrofiga harakatni yozib oluvchi maxsus 3D skanerlar o‘rnatib qo‘yiladi.

Aktyorlar esa juda ko‘p sonli datchiklar o‘rnatilgan maxsus kiyimlar kiyib olishadi. Ular maydonchada o‘z rollarini ijro etadilar va maxsus kiyimga o‘rnatilgan datchiklar skanerlarga doimo signal yuborib turadi. Shu tariqa aktyorlarning har qanday harakatlari to‘laligicha kompyuter virtual olamida shakllanadi.




3D harakat skaneri.



3D harakat skaneri vositasida xarakatni yozib olish va virtual aktyorlarga biriktirish jarayoni.

Kameron CGI8 texnologiyalarni shu darajada takomillashtirdiki, endi aktyorlar istalgan qaxramon rolini ijro etishlari mumkin va buning uchun hech qanday maxsus grim qilish yoki kiyimlar tikish shart emas⁹”. Avvallari, eski texnologiyalarda harakatni yozib olish vaqtida aktyorlarning yuz ifodalariga umuman e’tibor berilmas va faqatgina ularning jismoniy harakatlarini iloji boricha sifatli xolda yozib olishga asosiy e’tibor qaratilardi.

Kameron esa, xarakat skanerlari sonini 6 karraga ko‘paytirganidan tashqari, asosiy e’tiborini aktyorlar ijrosiga, mimikalarga qaratdi. Kameron buning uchun yangilikka qo‘l urdi. U harakatni yozib olish paytida aktyorlarning yuz ifodalarini ham yaxshiroq yozib olishga e’tibor berdi. Kichkina kameracha bilan jixozlangan xarakat skanerini shlemga o‘rnatib aktyorlar boshiga kiydirdi. Bu yangilik aktyorlarning har qanday holatini, hatto uning ichki kechinmalarini-da virtuellashtirib berish imkoniyatiga ega.



8 CGI – Computer Generated Images Тўлалигича компютер технологиялари ёрдамида яратилган тасвир, графика/
9 Джон Ландау – “Аватар” фильми продюсери. “Аватар – у қандай яратилди” хужжатли фильмидан.

Kichik xarakat skaneri

Skaner berayotgan tasvir

Bu sistemada aktyor yuziga mayda elektron datchiklarni o'rnatishning iloji yo'q bo'lgani uchun ham ularning yuzlariga markerlar bilan nuqtachalar qo'yib chiqildi. Kichik kamera yuz tasvirini asosiy kompyuterga yuboradi va u yerda tasvirlar qayta

ishlanadi. Keyin esa xarakat fazalari, mimikalar kompyuter virtual dunyosida yaratilgan qaxramonga yuklanadi, ya'ni biriktiriladi. Bu jarayonda aktyor biror-bir harakat qilsa, shu paytning o'zidayoq bu harakatlarni virtual aktyor ham takrorlaydi.



Kompyuter yordamida qayta ishlash jarayoni: nuqtalarni belgilash va xarakatlarni virtual aktyorga yuklash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailov M.N, Kim. S.S “Kinosyemochnaya apparatura”- O'quv qo'llanma. T.2006-y.
2. Meliqo'ziyev I.M “Ko'p kameralarda tasvirga olish uslubi”- O'quv qo'llanma. T.2009-y
3. Ismailov A.I. Meliqo'ziyev I.M “Texnicheskiye i tvorcheskiye vozmojnosti videokameri”- Darslik . T.2009-y

Nazorat savollari

1. HD formatining asosiy xususiyatlarini ayta olasizmi?
2. HD formatida filmlar yaratish jarayonini izohlang?
3. HD formatida tasvirga olish bo'yicha amaliy ishlar qanday bajariladi?

2-mavzu. Kinolarni tasvirga olishning o'ziga xos texnologiyasi

Reja:

2.1. Maxsus kino tasvirga olishning eksperimental tadqiqotlarining muhim vositalari.

2.2. Murakkab syomkalar.

Tayanch so'zlar: O'zbek kinosi, kinematografiya, tarixiy janr, kompozitsiya, tasviriy yechim, ifodalilik.

2.1. Maxsus kino tasvirga olishning eksperimental tadqiqotlarining muhim vositalari.

Kino san'ati o'zining yuz yildan ortiq tarixiy rivojlanish yo'lida juda ko'p o'zgarishlarga, yangilanishlarga yuz tutdi va zamonaviy kino san'ati darajasiga yetib keldi. Unda turli davrlarda turli avlod ijodkorlari rang-barang janrlarga qo'l urdilar, o'zgacha uslublar yaratdilar va turlicha badiiy ifoda vositalaridan foydalandilar. Har bir davrda qilingan o'zgarishlar, kiritilgan yangiliklar va uslublarning kino san'atida o'z o'rnini bor, albatta.

Bugungi kunda esa maxsus effektlarsiz kinoni tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Ko'pchilikda hayrat uyg'otayotgan maxsus effektlar, mutaxassislariga yaxshi ma'lumki, bugun yoki kecha paydo bo'lib qolgani yo'q. Aslida uning ildizlari juda uzoqqa, XIX asrlar oxiriga borib taqaladi.

“Harakatdagi tasvir” – kinematografiya o'z rivojlanish yo'lini tomoshagohdan, yarmarka illyuzionlaridan ommaviy ko'ngilochar tomosha sifatida boshlagan ekan, unda tomoshabinni o'ziga jalb qiluvchi tomoshaviylik elementlarining, xususan, turli tryuk¹⁰ va effektlarning bo'lishi tabiiy holdir.

Bundan maxsus effektlar kino san'ati bilan u ilk paydo bo'lgan davrlardan o'zaro bir butunlikda rivojlana boshlagan va kinoda kompyuter maxsus effektlarining paydo bo'lishi kinoning san'at sifatida shakllanishidagi tabiiy rivojlanish jarayonining evolyusion davomi degan xulosa qilish mumkin.

1902-yilda fransiyalik kino arbobi J.Meles “Effektli kinolar asri”ga eshikni ochib berdi. U turli kinotryuklarni ixtiro qildi va uni kinorejissuraning kundalik amaliyotiga kiritdi. Yangi davr boshlanib maxsus va murakkab tasvirga olish usullaridan foydalanib kinolar yaratish avj oldi. 1920-1930-yillarda yaratilgan filmlar ichida, janr xususiyatlaridan qat'iy nazar, murakkab tasvirga olish usullarining aqalli birortasidan foydalanilmagan biror-bir filmni topish mushkulligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bu holat o'ziga xos epidemiya darajasiga ham ko'tarildi.

Ilmiy-fantastik syujetlarga asoslangan asarlar ilk kino rejissyorlarini ham bugungidan kam qiziqtirmagan, albatta. Faqatgina bu syujetlarni ekranga ko'chirishning imkoniyati yo'qligi ularga talay muammolarni tug'dirgan. Deyarli hamma rejissyorlar o'z g'oya va rejissyorlik topilmalarini ekranda to'raligicha

¹⁰Blain Brown. “Cinematography. Theory and practice imagemaking for cinematographers and directors” -TR850.B7598. Darslik. 2012-USA. 148-bet.

namoyon eta olmasliklaridan norozi bo'lardilar. Shunday bo'lsa-da, ular grim yoki dekoratsiyalar vositasida fantastik filmlar yaratishga uringanlar. Nemis kino maktabi namoyondalari, rejissyorlar Paul Vagner va Genrix Galeenlar tomonidan 1915-yilda yaratilgan "Golem, u qanday dunyoga keldi" filmi qonxo'r vampir-drakula to'g'risidagi rejissyor Fridrix Vilgelm Murnauning "Drakulaning mehmoni" (1897-y.), "Nosferatu" (1921-1922-y.) kabi filmlarning yaratilishi fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

XX asrning 70-yillariga kelib kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi maxsus effektlar yaratilish texnikasi va texnologiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Atamashunoslikda "maxsus effektlar", "kompyuter maxsus effektlari", "kompyuter grafikasi" tushunchalari paydo bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar tinib-tinchimas kinoijodkorlarga o'z fantastik tasavvurlariga istagancha erk berishlari uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bevosita kinokameraning o'zida ish olib boriladigan davrda juda ham mushkul yoki tamomila imkonsiz bo'lgan barcha effektlar bugungi kunga kelib oddiygina ishdek bo'lib qoldi.

Ko'p hollarda rejissura, aktyorlar ijrosi, dramaturgiya kabi haqiqiy san'at asari tarkibiy qismlari bo'lgan komponentlar ikkinchi darajaga tushib qolgani holda aynan maxsus effektlarning o'zi film tomosha qilinishiga sabab bo'la boshladi. Bu orada "Filmda maxsus effektlar qanchalik ko'p bo'lsa, u shuncha ko'p tomoshabinni o'ziga jalb qila oladi" qabilidagi o'ziga xos ibora ham paydo bo'ldi. Bu tendensiya hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda. Qachondir bu kino komponentlari o'rtasida muvozanatga erishiladimi? Maxsus effektlar shunchaki o'z imkoniyatlarini ko'z-ko'z qilmay, kinoasarning mazmun-mohiyatini, film g'oyasini to'liq ochib berish va uni rivojlantirish uchun ham xizmat qiladimi? Bugungi kun san'at falsafasi oldida ana shu kabi bir qator savollarga javob topish masalasi turibdi.

Bundan tashqari, maxsus effektlarning falsafiy va ma'naviy xususiyatlariga e'tibor qilish, ularning kino san'atining sofligiga keltirayotgan va kelajakda keltirishi mumkin bo'lgan zarari to'g'risida mushohada yuritish, bugungi globallashtirilgan sharoitlarda kinodagi milliylik sifatlarining saqlanib qolish muammolari va o'rinli ravishda bu kabi filmlarning endigina shakllanib kelayotgan yosh avlod ongiga, ruhiyatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirlari to'g'risida fikr yuritish zarur va shartdir.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kino san'atida murakkab tasvirga olish usullarining, maxsus effektlarning yangi tasviriy ifoda vositasi sifatidagi o'rnini aniqlash va ular bilan bog'liq holda san'atda, jamiyatda yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qoldi.

Maxsus effektlar to'g'risida fikr yuritishdan oldin, avvalambor, "Maxsus effektlar o'zi nima?" degan savolga oydinlik kiritib olish maqsadga muvofiqdir.

Maxsus effékt (ingl. *special effect*, qisq. **SPFX**, **SFX** yoki **FX**) – kinematografiyadagi texnologik usul, yo'l. Kinoda, televideniya, turli shoularda va kompyuter o'yinlarida, foydalaniladi. Asosan oddiy usullarda suratga olishning imkoniyati bo'lmagan sahnalarni, masalan, olis kelajakdagi kosmik kemalar

o'rtasidagi janglar kabi shunga o'xshash fantastik tasvirlarni yaratish uchun foydalanilgan.

FX termini ingliz tilidagi abbreviatura bo'lib, special-effects, ya'ni maxsus effektlar ma'nosini bildiradi. **FX** abbreviaturasidagi "F" va "X" harflari aslida hech qanday ma'noni anglatmaydi. Amerikancha ingliz tilida yasalgan "4 U" = 4 – four – for, U = you = (sen uchun) qisqartma so'zi kabi **FX** abbreviaturasi ham **F-eff** va **X-eks** so'zlarini biriktirgan holda eff+eks ya'ni, effects – effektlar, so'zi yasalgan. Bu kabi qisqartma so'zlar yasash g'arbda ham urfga kirgan.

Maxsus effektlardan yana an'anaviy usulda tasvirga olish usullari juda katta sarf-xarajatlarni talab qilganda, masalan, samolyotni parvoz chog'ida portlab ketishi, yoki tasvirga olish ishlari insonlarga, atrof-muhitga kuchli ekologik zarar yetkazishi mumkin bo'lganida, tabiiy sharoitlarda imkonsiz bo'lgan, ya'ni qor bo'ronlari, kuchli tornado, zilzila kabilarni ekranda yaratish maqsadlarida foydalaniladi. Bundan tashqari, maxsus effektlardan tasvirga olingan materialni qayta ishlashda, sifatini yaxshilashda, boshqa tasvirlar bilan birlashtirishda va ko'plab boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Kino tarixiga bir nazar tashlab 1895-1896-yillarda olingan filmni ko'rib chiqilsa, ularda hech qanday g'oya ham aktyorlar ham bo'lmaganini ko'rish mumkin. Ularning nomlari ham xuddi ulardagi syujetlar kabi juda oddiy edi: "Poyezdning stansiyaga kirib kelishi", "Qor bo'ron", "Qopda yugurish", "Fotosuratchi xonasida" (aka-uka Lyumyerlar); "Tosh yo'nuvchilar ish ustida", "Model ayolning yechinishi", "Sartaroshxonada" ("Pate"); "Vena tomosha zalida qushlarning don yeyishi" ("Gomon"). Biror g'oya uchun maxsus qilingan effektlardan asar ham yo'q edi.

Kino tarixidagi eng birinchi tryuk Parijdagi Opera maydonidagi tasvirga olish ishlari paytida kashf qilingan. U paytlar hali takomillashib ulgurmagan kinokameralardan birida tasvirga olish paytida kutilmaganda kinotasma uzilib ketadi va kamera to'xtab qoladi. Yangi kinotasma qo'yilgunigacha oradan biroz vaqt o'tadi. Tasvirga olinayotgan obyektlar: foytunlar, ko'p o'rinli izvoshlar (omnibus), odamlar o'z harakatlarida davom etaverdilar. Yangi kinotasma qo'yilib ish davom etadi. Kinotasma proyavitel¹¹da qayta ishlanganidan keyin uni ko'rgan rejissyor g'aroyib metamorfoza¹²ga duch keladi. Jorj Meles bu voqeani xotirlar ekan shunday degandi: "Men kinotasma proyektorda ko'rayotgandim va film uzilish ro'y bergan joyiga yetganda Madlen - Bastiliya omnibusining ruhlar bilan o'rab olingan dafn aravasiga, erkaklarning ayollarga aylanib qolganini ko'rdim. Bu tryuklar sirini topdim va ikki kun o'tib erkak kishining ayolga aylanishi, to'satdan yo'q bo'lib qolish va paydo bo'lish kabi, keyinchalik misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishgan tryuklarni yaratdim"¹³.

"Aylanish" bilan bog'liq mo'jiza o'z-o'zidan, hech qanday qo'shimcha texnik vositalarsiz, faqatgina kameraning o'zi bilan amalga oshdi. Havaskor-illyuzionist bo'lgan Jorj Meles kameraning bu kabi g'ayrioddiy imkoniyatlariga befarq qaray olmasdi. Melesga borliq olamni shunchaki tasvirga tushirish emas, balki ijodiy

¹¹ *Proyavitel* – proyavitel, foto va kinotasmalarni qayta ishlashda, chiqarishda ishlatiladigan dori, suyuq modda.

¹² *Metamorfoza* – rivojlanish natijasida boshqa ko'rinishga, tusga kirish, aylanish, keskin o'zgarish.

¹³ Sadul J. Всеобщая история кино. Т.1.- М., 1958.- С. 131.9

yondashib uni o'zgartirgan holda, aslida mavjud bo'lmagan narsalarni ko'rsatib berish fikri kelib qoladi. Bu soddagina "sehrgarlik" *stop-kadr* deb nomlangan ilk usulning paydo bo'lishi edi.

Apparatning buzilishi uning shu kungacha aniq bo'lmagan xususiyatini – bir kadri boshqa bir kadr bilan tezlikda almashtira olish imkoniyatini ochib berdi. Shu tariqa ilk kinematografik tryuklar kashf etildi. Aniqlik kiritib o'tish joizki, bu tryuklar kinematografik tryuklar edi, ya'ni ular aynan kinokameraning imkoniyatlari vositasida yaratilgandi. Chunki, 1898-yilda Alfred Klark tomonidan suratga olingan "Mariya Styuartning qatli" filmida mexanik tryuklar yordamida qirolichaning boshini chopish sahnalari yaratilgandi. Unda aktrisa boshiga mumdan yasalgan sun'iy bosh o'rnatilgan va tasvirga olish paytida shu boshni kesib tashlashgan.

O'zi turli fokus va tryuklar "qozonida qaynab" yurgan Meles sirli "aylanish" va "g'oyib bo'lish"larni ko'zboylog'ichlarning eski uslublarida emas, balki o'zi ixtiro qilgan usullarda amalga oshirishga qaror qiladi. Melesning ixtirolari – kinematografik tryuklar ilk kino janrlarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi.

1896-yilda suratga olingan "Rober Uden teatrida ayolning o'g'irlanishi" filmida Jorj Meles ekranda g'ayrioddiy fokus yaratdi. Fokuschi rolini ijro etayotgan aktyor, aktrisa boshi uzra qo'llarini aylantirib bir-ikki afsunlar o'qidi va shu onda Meles kamerani to'xtatdi. Aktrisa kamera oldidan nari ketadi va shu onda tasvirga olish yana davom ettiriladi. Namoyish paytida tomoshabinlar filmning to'xtaganini sezmadilar ham, balki haqiqiy "sehrgarlik"ning guvohiga aylandilar. Mo'jiza shundoqqina tomoshabinlarning ko'z o'ngida, hech qanday fokusning ishtirokisiz ro'y berdi.

Kino afsungari o'z tryuklarining asl mohiyatini sir tutish bilan ularning tomoshaviyligini yanada oshirishga xizmat qildi. "Bir daqiqada havodan 10 ta shlyapani olayotgan fokuschi" (1896-y.), "Rober Uden teatrida ayolning o'g'irlanishi" (1896-y.) "Fantasmagorik illyuziyalar" (1898-y.), "Chaqmoq tezligidagi aylanishlar" (1899-y.), "Tirik qartalar" (1905-y.) – bu filmlar nomlari tomoshabinlar ularda qanday mo'jizalarni ko'rishi mumkin bo'lganidan darak berib turibdi.

Buyuk fransuz kinosi darg'asi bundan tashqari *kadrma-kadr tasvirga olish, ikki karra va ko'p karra ekspozitsiyalash, tezlashtirilgan va sekinlashtirilgan tasvirga olish, kashedan foydalanish* va boshqa usullarga asoslangan effektlarni birin-ketin kashf qila boshladi va uni kinorejissuraning kundalik amaliyotiga kiritdi. Kinoda yangi tasviriy ifoda vositasini kashf etdi.

Bir tomondan bu kabi murakkab tasvirga olish usullarini "effektlar" deb atash hozir hatto biroz kulgulidek tuyulishi mumkin. Lekin ishonchimiz komilki, stol ustida raqs tushayotgan jimitdekkina balerina yoki tog'dek ulkan dev boshi bilan jang qilayotgan botir yigit u paytlar uchun haqiqiy "sehrgarlik"dek qabul qilingan.

Melesning murakkab tasvirga olish usullardan foydalanish asosida yaratgan ilk 2 daqiqalik filmi "Iblis qasri" (*Le manoir du diable*, 1896) kartinasi bo'lib, rejissyor bu filmda o'ziga ma'lum bo'lgan barcha murakkab tasvirga olish usullaridan foydalanishga harakat qilgan.

Dahshat va fantastika janrida suratga olingan bu filmning syujeti quyidagicha: qadimiy qasrlarning birida kadrda ko'rshapalak paydo bo'ladi va u bir aylanib Mefistotelga aylanadi. Mefistotel sehrli qozonga afsun o'qiydi va qozondan dahshatli maxluqlar, ajina va alvastilar chiqib xonada izg'iy boshlaydilar. Mefistotel o'z bandilarini shu yo'l bilan qo'rquvda ushlar edi. Bandilardan biri juda qo'rqib ketadi va Xudodan yordam so'rab cho'qinadi. Ana shu lahzada Mefistotel g'oyib bo'ladi.

Bu film kino tarixidagi maxsus effektlardan foydalanib yaratilgan eng birinchi filmidir. Uning premyerasi 1896-yil 24-dekabrda Parijdagi "Roben Uden" teatrida bo'lib o'tgan va unda tomoshabinlarga *sekin-asta paydo bo'lish* (poyavleniye), *g'oyib bo'lish* (ischeznoveniye), odam va predmetlarning *bir turdan ikkinchi turga aylanishi* (transformatsiya) kabi effektli kadrlar ilk bor namoyish etilgan. Bu filmni ko'rgan tomoshabinlarning o'sha paytdagi taassurotlari naqadar g'aroyib bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas.

Meles o'zining "Rezina boshli odam" (1901-y.) filmida o'zi va o'z boshini tasvirga olgan. Unda ikki tasvirning kamera yordamida birlashtirilishi – *kombinatsiyalanishi* amalga oshirilgan. Meles bunda obyektiv linzaning ma'lum qismini qora rangga bo'yagan va tasvirga olgan. So'ng kinotasmani orqaga qaytarib endi linzaning avval bo'yalgan qismini yuvib, ochiq bo'lgan joylarini esa qora rangga bo'yagan va plyonkada avval ekspozitsiyalanmagan joyiga tasvirga olingan. Bu usul keyinchalik mukammallashtirilib *kashedan foydalanish* usuli yaratilgan.

1902-yilga kelib murakkab syomkalar sohasidagi dadil qadamlar tashlana boshlandi. J.Melesning 14 daqiqalik "Oyga sayohat" (La Voyage dans la Lune) filmi ilmiy-fantastika janrida yaratilgan eng birinchi film bo'lib tarixga kirdi. Jorj Meles bu filmni Jul Vernning "Zambarakdan uchib Oygacha" deb nomlangan asari va Gerbert Uellsning "Oydagi ilk odamlar" fantastik asarlari asosida suratga olgan.

Filmning qisqacha syujeti shunday: Akademiya olimi konferensiyada o'z hamkasblariga oyga uchishning imkoniyati borligi to'g'risida ma'ruza o'qib o'z izlanishlari bilan tanishtiradi. Bu g'oyani akademiya a'zolari qarsaklar bilan kutib oladilar va oyga ekspeditsiya jo'natishga kelishib oladilar.

Ekspeditsiya a'zolari ulkan zambarak ichiga o'rnatilgan snaryadsimon raketa ichiga o'tirib, oy tomon parvoz qiladilar. Ular oy sathiga qo'nib dam olish uchun yotadilar va ertasi kuni tongda izlanishlarni boshlaydilar. Ular bu yo'lda g'aroyib sakrovchi Oy jonzotlariga duch keladilar va ulardan soyabonlar bilan himoyalanihadi. Olimlar Yerga qaytishga ahd qilishib, raketani oy qoyasidan yerga itarib yuboradilar. Raketa okeanga tushadi va sohilga eson-omon suzib borishadi. U yerda esa ularni hamkasblari gullar bilan kutib oladilar.

Film premyerasi Fransiyada 1902-yilning 1-sentabrida bo'lib o'tgan. Bu film ovozsiz kinematografiyaning haqiqiy durdona asarlaridan biri deb tan olingan va kino san'atida maxsus va murakkab tasvirga olish usullaridan foydalanishda, uning rivojida o'ziga xos tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

Melesning kashfiyotlarini hamma ham birdek ishtiyok bilan qabul qilgani yo'q. Chunki bu uslublar juda qiyin bo'lib, ular ijodkorlardan kuchli sabr-toqat, yuqori darajadagi aniqlikni taqozo etar, bundan tashqari juda ko'p vaqt va mablag'lar talab qilardi. Albatta, u paytda barcha ijodkorlarda ham bunday imkoniyatlar bo'lmagani

aniq. Shuning uchun ham rejissyorlar bu yangi uslublarga juda qiyinchilik bilan ko'nikishgan va ulardan foydalanishga o'rganishgan.

Shu tariqa, Melesning yangi novatorlik uslublari kino san'atidagi barcha maxsus effektlarning asosi va in'ikosi bo'lib xizmat qildi.

Jorj Meles bilan deyarli bir vaqtda ingliz rejissyori Robert Paul ham alohida tasvirlarni bir kinotasmaning o'ziga ko'p marotaba bosish – pechat qilish usuliga asoslangan ko'pgina yangi tryuklarni kashf qildi. Afsuski, kinotryuklar yaratish jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shgan ko'pgina boshqa ijodkorlarning nomlari no'malumligicha qolgan. Lekin ularning yorqin iste'dodlari va mashaqqatli mehnatlari bois bir necha o'n yillar o'tib kino san'at sifatida paydo bo'lganidan so'ng kinotryuklar yaratishning yangidan-yangi usullari o'ylab topildi.

J.Melesdan tashqari unga raqobatchi bo'lgan juda ko'plab kinoijodkorlar turli tryuklarni, effektlarni ixtiro qilish yo'lida mehnat qilganlar. Ulardan biri Fred Gabouri bo'lib kinoda rassom, dizayner, rekvizitor va maxsus effektlar sahnalashtiruvchisi bo'lib ishlagan. Buyuk aktyor va rejissyor Baster Kitonning "Bir hafta" (1920), "Mahbus №13" (1920), "Qo'shnilar" (1920), "Arvohlar uyi" (1921), "Yuqori belgi" (1921), "Echki" (1921), "Teatr" (1921), "Qayiq" (1921), "Oq tanli" (1921), "Xotinimning qarindoshlari" (1922), "Muzlatilgan shimol" (1922), "Elektrik mehmonxona" (1922), "Kunduzgi tushlar" (1922), "Sevgi makoni" (1923), "Bizning mehmondo'stligimiz" (1923), "Kichik Sherlok" (1924), "Navigator" (1924), "Yetti imkon" (1925), "General" (1927), "Kollej" (1927) kabi filmlari uchun bir qator fizik effektlar yaratgan.

Amerikalik rejissyor Edvin Porter ham kino rivojiga katta hissa qo'shgan. 1902-yilda u ilk bor parallel montaj uslubidan "Amerika o't o'chiruvchisining hayoti" filmida foydalangan.

Bundan tashqari Segundo De Shomon "Kabiriya" (1914), "Napoleon" (1927) filmlaridagi, Norman Daun "Kaliforniyadagi missiya", (1907), "Sharqona muhabbat" (1916), "Dengizchi-Sinbod" (1917), "Baxtli qizlar shousi" (1931), "Yukonning ishlari" (1937), "Shimol yetimchalari" (1938) filmlarida ishlab chiqqan mexanik va vizual effektlari bilan, nemis ixtirochisi Ernest Kunstman o'zining "Varete" (1925), "Metropolis" (1927), "Doktor Mabuzening vasiyati" (1933), "Iroda tantanasi" (1934) filmlari uchun o'ylab topgan maxsus effektlari bilan ovozsiz kinematografiyada maxsus effektlarning rivojlanib taraqqiy etishiga va yangi badiiy ifoda vositasi sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. Bu davrni maxsus effektlar uchun o'ziga xos shakllanish davri bo'lgan deyish mumkin.

Ijodkorlar maxsus tasvirga olish usullarining sir-asrorlarini bilib olishganidan keyin ilk marotaba ilmiy fantastik filmlarni yaratishga intilish kuchaydi. Bu hol o'z-o'zidan yangidan-yangi izlanishlar va uslublarni taqozo qilardi. Ana shunday izlanishlar mevasini o'zida aks ettirgan holda 1933-yilda "King Kong" filmi ekran yuzini ko'rdi. Butun kino tarixida hali bunaqa film bo'lmagandi. Film oradan qariyb 70 yil o'tgan bugungi kunda ham, o'zining mukammal va original maxsus effektlari bilan tasavvurni lol qoldiradi.

Mutaxassis Uillis O'Brayan kadrma-kadr tasvirga olish usulidan foydalanib qo'g'irchoq va haqiqiy aktyorlar ijrolarini qoyilmaqom tarzda bir kadrda birlashtira olgan. O'Brayan bu usul ustida 20-yillar o'rtalaridan boshlab tajribalar o'tkazib

kelardi. Bu usulda kinokamera xuddi fotokamera singari ishlaydi va faqat bittadan kadrni (kadrik¹⁴ni) tasvirga oladi. Bir kadr tasvirga olinganidan keyin qo‘g‘irchoqlar yoki predmet o‘rni, shakli o‘zgartiriladi va keyingi kadr olinadi. Ish so‘ngida esa olingan kadrlar bilan haqiqiy aktyorlar ijrosini birlashtirish mumkin bo‘ladi. Natijada esa kombinatsiyalangan tasvirlar hosil bo‘ladi. O‘Brayan aynan shu usulda ishlab juda ko‘p muvaffaqiyatlarga erishgan.

Kinematografiya rivojining turli bosqichlarida barcha tryukli tasvirga olish usullarini film operatori amalga oshirar edi. Keyinchalik, tasvirga olish usullari, olingan tasvirlarning sifati, haqqoniyligi jihatidan ularning oldiga qo‘yilayotgan badiiy-texnik talablarning ortishi, maxsus tasvirga olishning yangidan-yangi va murakkab turlari paydo bo‘lishi bilan yangi mutaxassislik – murakkab syomkalar bo‘yicha operator kasbi paydo bo‘ldi. Bu ish 30-yillarga kelib kasb sifatida to‘liq shakllandi.

Sababi juda oddiy, qaysidir operatorlarda badiiy-ifoda vositalardan foydalanishda, original tasviriy yechim topishda, yorug‘likdan foydalanishda tug‘ma intuitsiyasi bo‘lsa, boshqa bir operatorlarda texnik vositalardan foydalanishda layoqati bo‘ladi va hech bir operator operatorlik texnikalarini, ularning xususiyatlarini, ulardan foydalanishdagi mohiyatni ularchalik anglab yeta olmaydilar. Aynan shunday texnik geniylarning kashfiyotlari, original usullari va uslublari sabab kino san‘ati texnik vositalari rivojlanib kelgan. Operatorlik san‘atida texnik vositalarni, ularning imkoniyatlarini yaxshi bilish orqali yangi tryuklar o‘ylab topish, tasviriy ifodalilikka erishish va shuning vositasida ekranda badiiy obraz yaratish eng birinchi galdagi vazifadir.

Dunyoning ko‘plab kino maktablari, xususan, Amerikada, Angliya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlar kinosida maxsus va murakkab tasvirga olish usullaridan foydalanib filmlar yaratadigan studiyalar, maxsus sexlar tashkil etildi va rivojlana boshlandi.

Jahon kinosida bo‘layotgan yangiliklar rus kino maktabini ham chetlab o‘tmadi, albatta. Rossiyada ham “Mosfilm”, “Lenfilm”, “M.Gorkiy kinostudiyasi”, Kiyev va Odessadagi bir qator kinostudiyalar qoshida murakkab tasvirga olish sexlari tashkil etildi. Keyinchalik bu kabi bo‘limlar boshqa badiiy va ilmiy-ommabop filmlar studiyalarida ham paydo bo‘ldi.

Ma‘lumki, rus kino maktabi azaldan o‘zining haqiqiy san‘at tarafdori bo‘lganligi bilan ajralib turgan. Sobiq Ittifoqda ko‘proq insonparvar sotsialistik mafkura ustun bo‘lgani uchun, kapitalistik davlatlar kinosidan farqli ravishda, kinotryuklardan haqiqiy san‘atni, film g‘oyasini va badiiy asarda bayon etilgan fantastik va dramatik holatlarni tomoshabinga to‘lig‘icha yetkazib berishga imkon beruvchi yangi tasviriy ifoda vositasi sifatida foydalanilgan. Tryuk va effektlarning kinoga kirib kelishi natijasida rus kinosida ertak va ilmiy-fantastika janri beqiyos rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi.

Badiiylikka erishish, badiiy asarda yoritib berilgan muhitni, qahramonlarning ichki kechinmalarini, sehrli ertakning barcha “sehr”ini ekranda bor bo‘yicha

¹⁴ Kadrik – kinotasmada 4 ta perforatsiya oralig‘ida joylashgan bitta kino kadr, kadrcha

namoyish etish uchun nimalar, qanday texnik vositalar zarur bo'lsa barchasini kashf qilishga intilishlar badiiy kino tarafdorlarining asosiy maqsadlari edi.

Murakkab tasvirga olish bo'yicha operatorlarning rus milliy maktabi shakllana boshladi. Murakkab tasvirga olish sexlariga tez orada bu ishning atoqli ustalari bo'lib yetishgan G.D.Ayzenberg, B.N.Gorbachev, aka-uka I.S. va V.S. Nikitchenkolar, N.S.Renkov kabi bir guruh yosh ijodkorlar guruhi keldilar. Murakkab tasvirga olishning rus maktabi 1940-70- yillarga kelib AQSH va Angliyaning dunyoga mashhur vizual effektlar maktablaridan sira ham qolishmasdi. Ba'zi bir tomonlama esa hatto ancha oldinda ham yurishardi.

Rus kinosi murakkab syomkalar ustalari garchand unchalik mukammal bo'lmagan texnik uskunalarda va sifat jihatdan ancha past bo'lgan (ayniqsa, rangli kinotasmalar juda sifatsiz edi) kinotasmalarda ishlagan bo'lsalarda, o'zlarining iste'dodlari, professionalizm va kashfiyotchiliklari bois juda katta muvaffaqiyatga erishdilar, tasviriy uslublarni shakllantirdilar va eng asosiysi, ular kombinatsiyalangan tasvirga olish texnik usullarini haqiqiy san'at darajasiga, yangi va mukammal tasviriy ifoda vositasi darajasiga olib chiqdilar. Hatto eng g'aroyib kompyuter videoeffektlari ijodkorlari ham bugungi kunda bu uslublardan foydalanishmoqda. Faqatgina texnologiyalar o'zgargan xolos.

2.2. Murakkab syomkalar.

Murakkab syomkalar bo'yicha operatorlik kasbining paradoksi shuki, bu operatorlarning ijodiy kartochkasida juda ko'p kinofilmlar nomlari ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Lekin aksariyat hollarda ular tomonidan ko'p izlanishlar natijasida o'ylab topilgan tasvirga olishning yangicha usullari, juda mashaqqatli va uzoq vaqtli tayyorgarlikni talab qiladigan kombinatsiyalangan kadrlar, tryuklar va effektlar ekranda unchalik ko'rinmaydi, chunki aynan bu tryuklarning ekranda sezilmasligi va tasviriy-ifodaviy, stilistik jihatdan postanovkachi-operator tomonidan olingan kadrlar bilan to'liq mos kelishi bu ishda eng oliy mahorat nuqtasi hisoblanadi. Bu kadrlarning haqiqiyligiga hatto eng sezgir tomoshabinni ham ishontira olish talab etiladi.

Filmda rassomlar ishini, yoki bo'lmasa Vittorio Storraro, Sergey Urusevskiy, Aleksey Moskvina, Xotam Fayziyev, Abdurahim Ismoilov kabi postanovkachi operatorlar ijodiy uslubini (pocherkini) darrov sezib olish mumkin. Vizual effektlardachi? Agar biror-bir vizual effektlar supervayzer¹⁵ining ijodiy uslubini aniqlashning iloji bo'lsa, filmda ularni nimalardan sezish mumkin?

Shu savolga javob topish maqsadida Variety jurnali xodimlari dizayner va VFX supervayzerlari orasida so'rovnomma o'tkazdilar. So'rovlar paytida "Ibtido" ("Nachalo") filmi bosh rassomi va dizayneri Gay Xendriks Dayas shunday dedi: "Agar VFX supervayzerlari ijodi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, ularning ishini, ijodiy uslublarini rassom yoki postanovkachi operatorlarniki kabi ajratib olish juda mushkul. Mening kasbimga kelsak, dizaynerlarning ijodiy uslublarini u yoqtiradigan ranglardan, ularning film kadrlariga ko'rsatadigan ta'sirlaridan sezib olish mumkin"¹⁶.

¹⁵ Supervayzer – bosh mutaxassis, maslahatchi mutaxassis.

¹⁶ www.film-effects.ru. "Как распознать работу мастера про визуальным эффектом" maqolasi. 1-bet. 18.01.2011-y.

Vizual effektlar ertak va fantastik filmlarda tasviriy-ifodaviy yechimining asosiy elementi bo‘lib xizmat qiladi. Maxsus effekt ustalari, murakkab syomkalar operatorlari ana shunday filmlarda o‘zlarining barcha ijodiy imkoniyatlarini to‘lig‘icha namoyon etishlari mumkin bo‘ladi.

V.Juravlevning “Samoviy reys” (1935-y.) filmi rus kino san‘atida ilmiy fantastika janrida yaratilgan eng birinchi filmlardan biri deyish mumkin. Film operatori A.Galperin, murakkab syomkalar bo‘yicha operator A.Renkov. Film voqealari 1946-yilda bo‘lib o‘tadi va yerliklar SSSR 1 raketasida koinotga parvoz uyushtirishadi. Oy sathiga qo‘nishga muvaffaq bo‘lishadi. Film qahramonlari parvoz paytida juda ko‘p qiziqarli voqealarni boshdan kechiradilar.

Filmda *maketdan foydalanish usulining* eng yuqori nuqtasini ko‘rishingiz mumkin. Bundan tashqari multiplikatsiyada foydalaniladigan qo‘g‘irchoqlarni harakatlantirish uslubining kinoda ilk marotaba qo‘llanilishini ham guvohi bo‘lasiz. Filmni yaratish jarayonida ijodkorlar maxsus murakkab tasvirga olish uslublaridan *perspektiv moslashtirish, ikki karra tasvirga olish, kadrma-kadr tasvirga olish usulidan, qo‘g‘irchoqlarni kadrma-kadr tasvirga olish* kabi usullardan foydalanishgan.

Haqiqiy sehnri ekranda yaratish uchun, avvalo, ijodkor murakkab syomkalarining barcha nozik jihatlarini yaxshi tushunishi, bu kasbga kuchli qiziqishi va mehri bo‘lishi kerak. N.S.Renkov xuddi ana shunday insonlardan edi. Dissertatsion ishda Renkov ijodiga alohida to‘xtalib o‘tayotganimizga arzirli sabab bor, albatta. Boshqa rus kino ijodkorlari mehnatini kamsitmagan holda aytib o‘tish kerakki, aynan Renkov sobiq ittifoq kinosida maxsus va murakkab tasvirga olish usullarida yaratilgan deyarli barcha usullarni kashf etgan va amaliyotga tadbiiq etgan.

Nikolay Renkov kinematografiyaga 1930-yilda kirib kelgan. U o‘zining kinodagi deyarli yarim asrlik ijodi davomida murakkab syomkalar bo‘yicha operator, sahnalashtiruvchi-operator sifatida 50 dan ortiq filmlarni yaratgan.

N.Renkov ijodini rejissyor G.Aleksandrovning “Internatsional”, eksperimental filmida multbezakchi sifatida boshladi. Keyinchalik rejissyor A.L.Ptushko bilan qo‘g‘irchoqli usulda yaratilgan “Vlastelin bita” qisqa metrajli filmida, 1935-y. yaratilgan “Yangi Gulliver” deb nomlangan to‘liq metrajli badiiy filmida ish olib borgan.

“Yangi Gulliver” filmi hajmli-multiplikatsiya usulida yaratiladigan bo‘lib, “Samoviy reys” filmidan farqli ravishda haqiqiy aktyorlar va qo‘g‘irchoqlar harakatini montaj uslubida emas, balki haqiqiy bir kadrda birlashtirish yo‘li bilan yaratilgan dunyodagi eng birinchi to‘liq metrajli badiiy filmidir. Operator oldida sekundiga 24 kadr tezlikda suratga olinadigan haqiqiy aktyor ijrosi bilan kadrma-kadr tasvirga olinadigan qo‘g‘irchoq qahramonlar ijrosini bir kadrda birlashtirishdek juda original va murakkab ijodiy vazifa turardi.

Film syujeti oddiy va jo‘n: pioner Petya “Gulliverning sayohati” kitobini tinglab o‘tirib uxlab qoladi va tushida biroz telbaroq qirol hukm suradigan Liliputiya mamlakatiga tushib qoladi. Qirol amaldorlari Petyadan kuchli va yengilmas yangi qurol sifatida foydalanishmoqchi bo‘ladilar. Lekin Petya qo‘zg‘olonchi ishchilar tomonida jang qiladi va qo‘zg‘olonchilar yosh pionerning ko‘magi bilan zolim hukumatni taxtdan ag‘darib tashlab ozodlikka erishadilar. Bu kabi syujetlar sobiq

Sovet mafkurasi va ertakning o'ziga xos sintezi edi va Sovet mafkurasini tadbqiq uchun yo'naltirilgandi.

Qo'g'irchoqlar va aktyorlarni bir kadrda jamlashtirish uchun tasvirga olishga tayyorgarlik jarayonida qo'g'irchoq personajlarga kerakli xarakter va harakat tempini tanlash, Liliputiya odamlarining bir paytning o'zida haqqoniy va groteskli obrazlarini yaratish uchun, masshtab va makon bo'yicha juda ko'p murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirishga to'g'ri kelgan. Qo'g'irchoqlar ishtirokidagi sahnalarni kadrma-kadr tasvirga olish jarayonida kamera harakatini, ya'ni *yaqinlashish (nayezd)*, *uzoqlashish (otyezd)* yoki *kamera harakatini (proyezd)*, hatto operatorlik krani harakatini-da imitatsiya qilish imkonini beruvchi bir qator maxsus konstruksiyalar yaratildi.

Qo'g'irchoq aktyorlarni tasvirga olish jarayonida birinchi plandagi qo'g'irchoqlar bilan kadrda ancha orqa planda joylashgan qo'g'irchoqlar o'rtasida kadrda fokus nisbati tirik aktyorni tasvirga olish paytidagi tiniq tasvirlanuvchi maydon kengligiga mos kelishiga asosiy e'tibor qaratildi.

Aktyorga va qo'g'irchoqlarga xarakter jihatdan bir xil, lekin intensivligi jihatidan tamomila boshqacha yorug'lik o'rnatish kerak edi.

Filmning bir qismi o'sha davr uchun ancha yangilik bo'lgan va hali to'liq o'zlashtirilmagan *transparant* (30-yillardagi ko'k ekran) eksperimental texnologiyasi vositasida yaratilgan. Bu usulga asosan avvaldan tasvirga olib tayyorlab qo'yilgan fonning pozitiv tasvirlarini plynkaning optik zichligiga proporsional ravishda qizg'ish-sariq rangga bo'yaladi. Tasvirga olish ishlari ko'k fonda amalga oshiriladi, personajlar esa qizil yorug'lik bilan yoritiladi. O'zining film kanalidan bir paytning o'zida ikkita kinotasmani o'tkaza oladigan (bipachnaya kamera) tasvirga olish kamerasining kassetalaridan biriga avvaldan tayyorlab qo'yilgan fon tasvirli pozitiv plynka va ikkinchisiga toza panxromatik negativ kinotasma o'raladi.

Personajlardan akslanayotgan qizil rang sariq – qizg'ish sariq rangga bo'yalgan pozitivdan hech qanday qarshilikka uchramay o'tib negativ kinotasmaga ta'sir o'tkazadi va tasvir hosil qiladi. Ko'k rang esa pozitiv plynkadagi tasvirlarning kuchli yoki kuchsiz bo'yalganligiga qarab undan qisman o'tadi yoki umuman o'tmaydi. Bu ikki kinotasmaning bir paytda harakat qilishi jarayonida negativ plynkada fonning tasviri chiziladi. Buning natijasida ko'k fonda tasvirga olingan obyektlar avvalroq tasvirga olib tayyorlab qo'yilgan fon tasvirlari bilan birikkan holda aks etadi. Bu holatda oldingi planda turgan obyektning ichidan orqa fonning ko'rinib turishi holati, ya'ni obyektning "ruhga aylanib qolish" effekti ham yuzaga kelmaydi.

"Yangi Gulliver" filmi janr sifatida yangiligi, ijodiy yechimining o'ziga xosligi bilan kinematografiya olamida sezilarli burilish yasadi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tishni istardikki, oradan 75 yil o'tgan bo'lsa ham "Yangi Gulliver" filmi o'sha davrning hali rivojlanmagan, odmi texnik vositalaridan foydalanib yaratilganligiga qaramay, aktyor va qo'g'irchoqlar ijrosini bir kadrda mujassam qila olgan, original tasviriy ifodalilikka erisha olgan film sifatida diqqatga sazovor. Bu esa operator va rejissyorning yuqori mahoratidan darak berib turibdi. Film ijodkorlari asar voqealaridagi shartlilik bilan tasviriy hayotiylik o'rtasidagi ajoyib

mutanosiblikka erishishning uddasidan chiqa olganlar va buning natijasida kinoning buyuk illyuziyasi yuzaga keldi, tasavvur tasvirga aylandi.

Renkov 1936-yilda postanovkachi-operator va rejissyor A.Macheret bilan "Samo chorlaydi" filmini, 1937-yilda esa murakkab syomkalar bo'yicha operator sifatida "Qattiq tekshiruv" filmini rejissyor P.Malaxov bilan tasvirga oldi. Har ikkala film ham harbiy tematikaga bag'ishlangan bo'lib, saviya jihatdan o'rtacha darajadagi filmlar edi. Lekin bu filmlar juda ko'plab samolyot maketlaridan foydalanilganligi va ijro jihatdan juda sifatli bo'lgan havo janglari sahnalariga boy bo'lganligini va sovet kinosida bunga qadar murakkab tasvirga olish uslubida bu kabi keng masshtabli film hali yaratilmaganligini e'tiborga olsak, bu filmlarning qanchalik ahamiyat kasb etganini tasavvur qilish qiyin emas.

Tasvirga olish ishlari uchun Renkov rahbarligida samolyotlarning kichik maketlarini turli kombinatsiya va rakurslarda tasvirga olish imkonini beradigan maxsus kran konstruksiyalari yasalgan. Renkov murakkab tasvirga olish sohasida erishgan yutuqlaridan o'zining rejissyor Y.Rayzman bilan tasvirga olgan "Samo chorlamoqda", rejissyor A.Jarov bilan yaratgan "Notinch xo'jalik" va "Chin inson haqida qissa" filmlarida, rejissyor A.Stolper bilan tasvirga olgan "Bizning yuraklar" kabi filmlarida ham foydalangan. "Samo chorlamoqda" filmida kino tarixida ilk bor parashyutda uchib tushayotgan aktyorning o'rta va yirik planlarini tasvirga olish imkonini beruvchi yangi texnik topilma bo'lgan *tezkor rir-proyeksiya* usulidan foydalanilgan. Bu usulda aktyorlik sahnasi avvaldan tasvirga olinib tayyorlab qo'yilgan fon tasvirlari proyeksiya qilinayotgan yorug' ekran fonida tasvirga olinadi. Bu usulda operatordan proyeksiya qilinayotgan fon tasvirlari va haqiqiy aktyorlik sahnasi o'rtasida ton va yorqinlik sharoitlarini to'g'ri tanlay olish mahorati talab qilinadi.

Ptushko va Renkovlarning keyingi hamkorlikda ishlagan filmlari A.Tolstoy asari asosida 1938-yilda yaratilgan "Oltin kalitcha" filmi bo'ldi. Murakkab tasvirga olish usullarining tasviriy-ifodaviylik va postanovka imkoniyatlarining rivojlanishi jihatidan "Oltin kalitcha" filminini ham "Yangi Gulliver" filmi singari yangi bosqichdagi film deb atash mumkin. Filmida qo'g'irchoqlar rolini tirik aktyorlar ijro etishgan, lekin ekranda ular oddiy odamlarga nisbatan ancha kichkina bo'lishlari kerak edi. Qo'g'irchoq-aktyorlar kadrda rol ijro etayotgan paytda ularning "kichikligi" effektini ular atrofini o'rab turgan predmetlarni masshtab jihatdan kattalashtirish hisobiga hosil qilingan. Bir kadrning o'zida qo'g'irchoqlar va katta odamlarni ko'rsatish zarurati tug'ilganda esa Ptushko va Renkovlar *perspektiv moslashtirish* usuliga murojaat qilganlar.

Aktyorlar va qo'g'irchoqlar o'rtasida o'zaro mos keladigan masshtab nisbatlarini hosil qilish uchun "qo'g'irchoqlar" harakatlanishi lozim bo'lgan dekoratsiyada yoki biror tabiat manzarasi tasviri tushirilgan devorda maxsus teshik joy qilingan. Uning ortida, taxminan 10-20 metr masofa uzoqda esa dekoratsiyaning yetishmayotgan qismi bir necha barobar kattaroq o'lchamlarda qurilgan va aynan o'sha dekoratsiyada qo'g'irchoqlar rolini o'ynayotgan aktyorlar o'z rollarini ijro etishgan. Film qahramonlarining o'lchamlari o'rtasidagi farq illyuziyasini yanada kuchaytirish uchun esa qo'g'irchoq-aktyorlar rol ijro etayotgan dekoratsiya ichiga "katta" personajlarning oyoqlarini aynan o'xshatilgan lekin bir necha marta

kattalashtirilgan masshtablarda yasalgan nusxalari qo‘yib qo‘yilardi. Bu esa kichik qahramonlarga “katta”larining oyoqlari oralaridan bemalol o‘tib harakat qilishlariga imkon bergan.

Tomoshabinlarda voqealar ikki turli masshtabli dekoratsiyada emas, xuddi bir joyda sodir bo‘layotgandek tasavvur uyg‘otishi uchun rejissyor, rassom va operator bilan birgalikda oldingi va orqadagi dekoratsiyaning ulangan joylari eng kam seziladigan nuqtalarini aniqlashlari, tasvirning har bir qismlari uchun alohida masshtab ko‘rsatkichlarini va unga mos ravishda tiniq tasvirlanuvchan maydon kengligini (GRIP) ham hisoblab chiqishlari, bundan tashqari, har ikkala dekoratsiya qismlari uchun bir xil xarakterdagi yorug‘lik muhiti yaratish yo‘llarini aniq belgilab olishlari zarur edi.

Film qahramonlari bo‘lgan Buratino va uning do‘stlari uchar yelkanli kemadan osma narvonlarda tushib keladigan epizodida murakkab tasvirga olishning *perspektiv moslashtirish* usulidan foydalanilgan. Buning uchun kadrning old planida turgan yelkanli kema maketida maxsus teshik joy qilingan bo‘lib, kadrning orqa planida, maketdan bir necha 10 metr orqaroqda yelkanli kemaning eshigi va bort qismini haqiqiy aktyorlar tushib kelishlari uchun bir necha barobar kattaroq o‘lchamlarda qurilgan. Maket va haqiqiy katta o‘lchamlardagi dekoratsiya qismlarini *perspektiv moslashtirish* usulida birlashtirilishi bu usulning barcha tasviriy-ifodaviy imkoniyatlarini o‘zida aks ettirib turadigan juda effektli kadrlarni suratga olish imkonini berdi. Bu usuldan foydalanish aslida juda katta o‘lchamlarga ega bo‘lgan haqiqiy yelkanli kemani qurib chiqishdek juda og‘ir ishdan film ijodkorlarini ozod qilgan.

Ikkinchi texnologiya – tezkor kadrma-kadr tasvirga olish usuli bo‘lib, undan filmning “Imperiya qarshi zarba beradi” qismida foydalanilgan. Bu holatda tasvirga olish jarayonida obyektни bir oz joyidan siljitish imkoniyati paydo bo‘lib, obyekt harakatlanayotgan paytda kadrdan hosil bo‘ladigan “chaplanib ketish” holatini yaratish va shu yo‘l bilan kadrlarga haqqoniylik berish mumkin bo‘lgan.

“Orion” fazo kemasi illyuminatorlaridan bizga ko‘rinadigan yulduzli osmon metall listlar yordamida yaratilgan. Ular qora rangga bo‘yalib, unda yulduzlar vazifasini o‘tovchi turli teshikchalar qilingan va bu teshikchalar ortidan yorug‘lik manbai qo‘yilgan. Bu holatda fazo kemalari harakatini ularning o‘zini emas, balki ana shu metall listlarni harakatlantirgan holda imitatsiya qilingan.

Filmdagi Oy sayyorasi ko‘rinishlarining ham hammasi haqiqiy foto tasvirlardir. Tasvirga olish jarayonida bir necha bor oy modelini tayyorlashga urinib ko‘rishgan, lekin bu urinishlarning hammasi zoye ketgan.

Filmdagi vaznsizlik natijasida havoda muallaq suzayotgan ruchka effekti juda oddiy amalga oshirilgan. Ruchka katta oyna bo‘lagiga ikki yoqlama yopishqoq skotch yordamida yopishtirilgandi va tasvirga olish paytida uni sekingina aylantirish, harakatlantirish mumkin bo‘lgan. Styuardessa esa uni shunchaki oynadan ko‘chirib olib uxlab yotgan passajir cho‘ntagiga solib qo‘ygan xolos.

Film oxirlariga kelib ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan “Yulduzlar darvozasi” ko‘rinishlari slit-scan texnologiyasi yordamida yaratilgan. Bu texnologiyaning e‘tiborli tomoni shundaki, tasvirga olish jarayonida kamera film kanalidagi kadr tuynugiga ingichka tirqishga ega bo‘lgan qopqoqcha qo‘yiladi. Tasvirga olish

jarayonida bu tirqishchani kadr o'rtasigacha surib u yoqdan bu yoqqa harakatlantiriladi va shu paytning o'zida tasvirga olinayotgan obyektни ham o'rnidan qo'zg'atilib turiladi. Natijada kintasmada deformatsiyalangan tasvirlar paydo bo'ladi. Duglas Trambull aynan shu yo'l bilan filmning final qismidan joy olgan "Yulduzlar darvozasi" kadrlarini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, rejissyor Stenli Kubrik bu filmni yaratayotgan paytda kompyuter yordamida turli virtual dekoratsiyalar, fazoviy olamlarni modellashtirish u yoqda tursin, hali kompyuter texnologiyalarining o'zi ham rivojlanib ulgurgani yo'q edi.

60-yillarga kelib deyarli barcha janrlardagi filmlarda vizual effektlardan foydalanish sustlashdi. Murakkab tasvirga olish usullariga qiziqish pasaydi va vizual effektlar yaratishning klassik uslublari yangi davr kinosi talablariga tasviriy ifoda vosita sifatida javob bermay qoldi. O'z navbatida murakkab tasvirga olish usullari texnikasi va texnologiyasi ham takomillashishdan to'xtadi.

Ko'pgina rejissyor va operatorlar kombinatsiyalangan tasvirga olish usullariga xuddi azob-uqubatli muammodek qarashib, o'z ijodlarida ulardan "nariroq yurish"ni ma'qul ko'ra boshladilar.

Bu yo'nalishdagi yangi usullar, yangi texnologiyalar borgan sari kamayib bordi. Bu hol nafaqat Rossiya, balki jahon kinosida ham kuzatildi.

To'g'ri, AQShlik tinib-tinchimagan kino ijodkorlari bu yo'nalishda muayyan yangiliklar o'ylab topishar va amaliyotga tadbiiq etib g'aroyib filmlarni yaratishga muvaffaq bo'lishgan. Biroq jarayonning umumiy manzarasi esa bu sohada sustlashishni ko'rsatardi.

Nazorat savollari

1. Maxsus effektlar deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday maxsus va murakkab tasvirga olish usullari turlarini bilasiz?
3. Filmlar yaratishda qanday zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda?
4. Filmlar yaratishda maxsus effektlardan foydalanish bo'yicha amaliy ishlar qanday bajariladi?
5. Filmlar yaratishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda qanday metodlardan foydalaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailov M.N, Kim. S.S "Kinosyemochnaya apparatura"- O'quv qo'llanma. T.2006-y.
2. Xusanov SH.T. "Maxsus va murakkab tasvirga olish va kompyuter maxsus effektlari tarixidan"-O'quv qo'llanma. T.: "O'zDSMI", 2011-y.
3. Ismailov M.N,Meliqo'ziyev I.M. "Metodika opredeleniye vremeni i usloviye eksponirovaniya s pomoshyu fotoeksponometra" -O'quv qo'llanma. T.2007-y
4. Ismailov A.I. Meliqo'ziyev I.M "Texnicheskiye i tvorcheskiye vozmojnosti videokameri"- Darslik . T. 2009-y

3-mavzu. Kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish

Reja:

3.1.O‘zbek tarixiy filmlarida tasviriy obraz yaratishda kinooperatorning mahorati

3.2. Kino san’atida “Tarixiy janr”ning o‘rni va ahamiyati.

Tayanch so‘zlar: O‘zbek kinosi, kinematografiya, tarixiy janr, kompozitsiya, tasviriy yechim, ifodalilik.

3.1. O‘zbek tarixiy filmlarida tasviriy obraz yaratishda kinooperatorning mahorati.

Tarixiy janr deyarli kino san’ati bilan bir paytning o‘zida yuzaga keldi va rivojlana boshladi. Huddi boshqa janrlar kabi tarixiy janr ham kino san’atida o‘zining mustaxkam o‘rniga va o‘ziga hos shakli, yo‘nalishiga ega bo‘ldi. Qariyb bir asrlik davr davomida rivojlanib kelayotgan o‘zbek operatorlik maktabi, milliy tarixiy filmlardagi tasviriy yechim masalasi, operatorlarning tarixiy filmlardagi mahorati mazkur ilmiy maqolaning asosiy tadqiqot obyekti.

Ishning maqsadi jahon kino san’atida tarixiy janrning yuzaga kelishi, jahon va o‘zbek kinosidagi ilk tarixiy filmlar va ularning asosiy yo‘nalishlarini, tarixiy filmlarda syujet rivoji va kompozitsiya hususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Shu bilan birga, tarixiy filmlarda operatorning ijodiy faoliyati, hususan kinooperatorning tarixiy filmlar tasviriy yechimi ustidagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini, XX asrda yaratilgan milliy tarixiy-biografik, sarguzasht filmlarda operatorning ijodiy topilmalarini o‘rganish mazkur ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ishda, bundan tashqari, jahon va o‘zbek milliy kino san’atida, shu bilan birga mustaqillik yillarida jahon va o‘zbek kinooperatorlari tomonidan yaratilgan badiiy tarixiy filmlar, ushbu filmlardagi kinooperatorlar tomonidan yaratilgan uslublar, foydalanilgan tasviriy ifoda vositalari, operatorlarning mahorat ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan.

Inson ongi va qalbiga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha kino san’atining imkoniyatlari beqiyosdir. Bugun O‘zbekistonda kino sohasiga har qachongidan ham katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 avgustdagi “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ3176-sonli Qarori, 2017 yil 9 avgustda “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori imzolangan ana shu g‘amxo‘rlikning amaliy isbotidir. O‘zbekiston respublikasining prezidenti SH.M.Mirziyoev qarori bilan san’at sohasini, hususan, kino sohasini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, uning moddiy texnik-bazasini rivojlantirish va kerak bo‘lsa qayta to‘liq shakllantirish, yoshlar tarbiyasida kino san’atining tutgan o‘rnini chuqur anglagan holda milliy tarixiy filmlarni yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratdi.

Bugungi kunda tarixiy mavzudagi, vatanimizning shonli o‘tmishi, haqiqiy qaxramonlari, tarixiy shaxslari, buyuk allomalari va el-yurt uchun jonini fido qilgan

oddiy insonlar haqida filmlar yaratish xar qachongidan ham dolzarb, har qachongidan ham zarur bo'lib qoldi. Bu masala avvalo o'z milliy tariximizni bilish ehtiyojidan ham ko'ra ko'proq ma'naviy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda.

“Operatorlar haqida yozishni hali o'rganmadik, – deya e'tirof etadi “Usta” deb nomlangan maqolasida mashhur rus kinotanqidchisi, san'atshunoslik fanlari doktori S.Freylix. – Bizning nazarimizda, ular faoliyatining mohiyatida mazmunan tayyor kartinaning, uning uslubining plastik ifodalanishi yotadi”[1. 8-b.]. Ushbu so'zlarni S.Freylix o'tgan asrning 50-yillarida aytib o'tgan. Biroq, bugungi kunda ham aynan operatorlik mahorati va uning filmdagi ijodiy faoliyatini to'liq taxlil qila oladigan taxliliy maqolalar, ilmiy ishlar yozilayotgani yo'q. Ayniqsa, ayni kungacha tarixiy filmlarda operatorlik mahorati masalalari mavzusi doirasida kompleks ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilmagan. Shu nuqtai nazardan ham mazkur izlanish bugungi kun o'zbek kinosi rivoji uchun aktual hisoblanadi.

Jahon va o'zbek milliy kino san'atida, shu bilan birga mustaqillik yillarida jahon va o'zbek kinooperatorlari tomonidan yaratilgan badiiy tarixiy filmlar, ushbu filmlardagi kinooperatorlar tomonidan yaratilgan tasviriy uslublar, foydalanilgan tasviriy ifoda vositalari, operatorlarning mahorat ko'rsatkichlari ushbu ilmiy tadqiqot ishining obyekt sifatida olinib tadqiq etildi. Shuningdek tadqiqot olib borishda mustaqillik yillarida o'zbek kinooperatorlari tomonidan yaratilgan badiiy tarixiy filmlar ushbu filmlardagi kinooperatorlar mahorati unsurlari namoyon bo'lgan tarixiy filmlar, o'zbek kinosi operatorlarining mahorat ko'rsatkichlari tahliliy o'rganilgan davriy ilmiy nashrlarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar material sifatida tadqiq etilgan.

Tarixiy filmlarda operatorlik mahorati masalalari, uning tarixiy filmlarda kompozitsiya, yorug'lik va rang bilan ishlashning o'ziga hos jixatlari dunyo va milliy kino san'atimizda ijod qilgan va durdona kino asarlar suratga olgan buyuk kinooperatorlar ijodidan misollar orqali ochib berilgan.

Kinooperatorlik mahorati, filmlarning tasviriy yechimi, o'zbek kinooperatorlar ijodiy faoliyatlari so'nggi o'n yillikda tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqot yo'nalishida bir nechta izlanishlar ham olib borildi. Tadqiqotchi A.Asqarovning “Qoraqalpoq kinosida operatorlik mahorati masalalari” mavzusidagi, B.Turobovning “O'zbek xususiy filmlarida badiiy, tasviriy obraz yaratishdagi izlanishlar” mavzusidagi, SH.Zokirovning “O'zbekskoe poeticheskoe kino” (*na primere rabot operatorov D.Demuskogo, M.Krasnyanskogo, D.Fatxulina, Y.Klimenko, A.Antipenko*) mavzusidagi ilmiy ishlari, B.Ganievaning “Bugungi kunda yosh kinooperatorlar faoliyatida professionalizm masalasi” mavzusidagi, H.Solihova tomonidan yozilgan “O'zbek operatorlik san'ati” (A.Ismoilov misolida) nomli ilmiy ishlari shular jumlasidandir. Ularda bugungi kunda ijod etayotgan o'zbek kinooperatorlari faoliyatiga tegishli ma'lumotlarning mavjud emasligi tabiiy. Biroq ushbu ilmiy ishlarda tarixiy mavzulardagi badiiy filmlarda operatorning ijodiy faoliyati, ijodiy izlanishlari, tarixiy filmlarning tasviriy yechimi, kompozitsiyasi, tarixiy filmlarda yorug'lik va rang yechimi mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu nuqtai nazardan qaralganda “O'zbek tarixiy filmlarida tasviriy obraz yaratishda kinoteleoperatorning mahorati” mavzusidagi mazkur tadqiqot ishi ushbu yo'nalishdagi ilk qadam hisoblanadi.

Bir asrdan ortiqroq muddat ichida jahon kinematografiyasida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Buning sabablari turlicha. XX asr boshlarida yuz bergan texnikaviy rivojlanish kinematografiyaning ifoda vositalari sifatida yangi janr va yo'nalishlarni kashf etishga da'vat etdi. Ilg'or kinouskunalarni o'zlashtirgan operatorlar va ular bilan xamkorlikda ijod qilgan rejissyorlar yangi uslub hamda vositalardan mohirona foydalanishib "eksperimental" kinematografiya yuzaga kelishiga sababchi bo'ldilar. Natijada yuz yil ichida kinematografiya adabiyotning, tasviriy san'at, arxitekturaning, teatr xamda televidenielerde mavjud bo'lgan janrlarni o'zining ifoda tili bilan o'z maydonida qaytarilmas shakllarda janrlar o'zlashtirib endilikda esa yangilarini kashf etmoqda.

3.2. Kino san'atida "Tarixiy janr"ning o'rni va ahamiyati.

Kino san'atida "Tarixiy janr" kino san'ati bilan deyarli bir kunda yuzaga kelgan deyish mumkin. Chunki, ilk tasvirga olingan filmlarning ko'p qismi, garchand ular hujjatli film xarakteriga ega bo'lgan bo'lsada, muhim tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgani bilan qimmatlidir. Kino san'atining bugungi kundgi dolzarb vazifalaridan biri tarixiy o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o'laroq, kino ijodkorlari tarixiy mavzudagi kinoasarda tarix haqiqatiga suyangan holda to'qimadan ham samarali foydalanadi. Kino mutahhssislari tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha ko'rsatib berish maqsadida to'qima qahramonlar obrazini asarga olib kirishi mumkin.

Tarixiy mavzuda asar kinoijodkordan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o'rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar tashqi ko'rinishlari va nutqida o'sha davrga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Kino ijodkorlarining tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, tomoshabinlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Kino san'atidagi tarixiy janr – badiiy kino janrlaridan biri bo'lib, u muayyan tarixiy davrni, voqea yoki biror tarixiy shaxs xayotini o'zida aks ettiradi. Tarixiy janr ham o'z navbatida bir nechta kichik janrlarga bo'linadi:

1. Tarixiy-biografik janr – aniq bir tarixiy shaxsning xayoti va faoliyati haqida batafsil hikoya qiluvchi ost janr. ("Spartak", "Buyuk Amir Temur", "Temir xonim", "Ibn Sino", "W.Bush", "Gandi" va boshq.).

2. Tarixiy-sarguzasht janr – o'ylab topilgan yoki biror afsonaviy qaxramonga bag'ishlangan film, aksar hollarda o'tkir syujetli va intrigalarga boy bo'ladi ("Graf Monte Kristo", "Indiana Djons" haqidagi filmlar) Tarixiy filmlar ko'p hollarda tarixiy romanlarning ekranizatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi ("O'tkan kunlar", "Xarobadan chiqqan millioner" va boshq.).

Tarixiy film ko'pincha badiiy kinoning sarguzasht janri va jangari janri bilan kesishadi. Negaki bu janrlardagi filmlarda turli dramatik voqealar, urushlar, inqilobiy voqealar va shu kabi hodisalar yoritiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki,

to'laligicha, ya'ni sof tarixiy janrda yaratilgan filmlar kam uchraydi. Ularning ko'pchiligi asosan subjanrlarda yoki badiiy filmlarning boshqa janrlari bilan qorishiq holatda yaratiladi.

Har bir narsada bo'lgani kabi tarixiy filmlarga ham muayyan talablar mavjud. Bu talablar janrning boshqa janrlaridan ajralib turishiga asosiy omil bo'lish bilan birga tarixiy filmning tarixiy faktlarga asoslanishini, uning tomoshabinga huddi hujjatli kino kabi "ishonchlilik" ta'sir kuchga ega ekanligini hisobga olgan holda yuzaga kelgan.

1. Tarixiy ishonchlilik. Muayyan davrni yoritib berayotgan film o'sha davrga mos va hos voqealar, atributlar, detallarni o'zida aks ettirishi shart. Filmda ko'rsatilayotgan voqealar haqiqatdan ham o'sha davrda sodir bo'lgan bo'lishi, yoki xech bo'lmaganda shu davrda sodir bo'lgan "bo'lishi mumkin" degan qarashga mos kelishi kerak.


2. Film qaxramonlari vaqt qonunlarini buzmasliklari kerak, yoki bu buzilishlar asosli bo'lishi lozim. YA'ni, agar qaxramonlar deydik ritsarlar bo'lishsa albatta ular o'sha davrga va ritsarlarga hos xolda so'zlashishlari, o'zini tutishlari kerak.

3. Tarixiy davrga oid rekvizitlar va anturaj ham shartli ravishda ko'rsatish mumkin, faqat ular filmda muhim ahamiyat kasb etmay faqat fon sifatida foydalanilsa. Oddiy bir misol, agar biz kapitanlik pagoni taqib olgan ofitserni ekranda ko'rib tursagu, unga kimdir "janob katta leteynant" deb murojaat qilsa bu juda qo'pol xato xisoblanadi.

4. Agar biz haqiqiy tarixiy shaxslarni filmda ko'rsatayotgan bo'lsak, ularning xayotini bir oz soddalashtirib, qsqartirib ko'rsatishimiz mumkin. Chunki, baribir uning butun xayotini ko'rsatib berishning imkoni yo'q. Asosiysi bu qahramon xayotini buzib ko'rsatishimiz yoki noto'g'ri talqin qilmasligimiz kerak.

Albatta, rejissyor yoki ssenariynavis muayyan shaxs yoki tarixiy voqeaga nisbatan o'z nuqtai nazarini, o'z talqinini ifodalash, o'z bahosini berish huquqiga ega. Lekin, biror tarixiy shaxsga nisbatan atayin tuxmat yog'dirish yoki tarixiy voqeylikni buzib ko'rsatish mumkin emas. Chunki, aksariyat tomoshabinlar tarixiy filmlarni huddi tarixiy haqiqat sifatida qabul qiladilar va unda ko'rsatilayotgan voqea va shaxslarni haqiqatda bo'lgan deb ishonishadi. Shu nuqtai nazardan ham tarixiy filmlarni yaratish juda mushkul, mas'uliyatli va nozik ishdir.

Kino san'ati sifatida paydo bo'lgan ilk yillarda (dastlab ibtidoiy shakllarda) uning atrof olamda bo'layotgan voqealarni tabiiy ko'rinishida, ishonarli va aniqlik bilan tarixga muhrlay olish hususiyati kino san'atida tarixiy janrning yuzaga kelishi va rivojlanishiga zaruriy estetik shart-sharoitni yaratib berdi. Kino san'atining ilk yillarida tarixiy janrda yaratilgan filmlar o'sha davr ijodkorlarining kino asarlari orqali "o'tmishni tiklash"ga bo'lgan jiddiy urinishlari va izlanishlaridan dalolat beradi va "Gersog Gizaning o'ldirilishi" (1908, rej. Le Barji, A.Kalmet, Fransiya), "Sevastopol mudofaasi" (1911, rej. V. M. Goncharov) filmlari fikrimizni isbotlaydi.



*1-rasm. "Gersog Gizaning o'ldirilishi" filmidan kadr,
(1908, rej. Le Barji, A.Kalmet, Fransiya).*

Qachonki, kinoijodkorlar o'z filmlarida o'tmish voqealariga murojaat qilib, film syujetiga chuqur tarixiy bilimlar va faktlar asosida qarashsa, voqealarni jamiyatda shakllanib ulgurgan munosabat asosida qayta tiklashsa va eng avvalo, insonning ma'naviy dunyosiga, uning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishiga chuqurroq, tarixan shakllangan tasavvurlar orqali baho bera olganlaridagina «Tarixiy film» tushunchasi o'zining haqiqiy ma'nosida namoyon bo'ladi.

O'zbekistondagi tarixiy voqealarni eng birinchi bo'lib kinotasmalarga muhrlagan birinchi o'zbek kinooperatori bu Xudoybergan Devonov edi (1878-1940). U 1907-08 yillar Moskva, Peterburgdan teleskop, grammofon, foto va kino uskunalar olib kelib fotolaboratoriya tashkil etgan [2, 67-b]. Bu laboratoriya Xorazmda fotokinostudiya vazifasini o'tagan. Devonov ijodi rus kinosan'atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan. U "O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari", "Turkiston ko'rinishlari", "Xiva va xivaliklar" kabi qisqa metrli filmlarni suratga olgan. Keyinroq, 1925 yillarda "Sovkino" muxbiri sifatida ishlab Moskvaga "SHo'r ko'l", "Ishchi ayollar" singari syujet va lavhalarini yuborib turdi. Lekin bu filmlar hujjatli harakterga ega edi.

O'zbekistonda badiiy kinofilmlarning ilk namoyishi 1897 yil Toshkentda bo'lib o'tgan. 1924 yili "Buxkino" nomli Rus-Buxoro o'rtoqlik tashkiloti tashkil etilib, u 1925 yili bir qator xujjatli filmlar hamda "Sevzapkino" kinostudiyasi bilan birgalikda "O'lim minorasi" filmi suratga olgan. Ushbu film, o'sha davrda xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyat asosida suratga olingan va aytish mumkinki aynan shu film tarixiy janrda vatanimizda suratga olingan eng birinchi filmidir.

1925-26 yillarda "Buxkino", "Sharq yulduzi", "O'zbekkino" korxonalar idorasi tashkil etildi va "Sharq yulduzi" kinofabrikasi ochildi (Ushbu kinofabrika 1958 yildan boshlab "O'zbekfilm" deb yuritila boshlagan). Huddi shu yillardan boshlab ko'plab filmlar yaratildi. Bunga "O'lim minorasi" ("Buxkino", 1925 y., rejissyor V.Viskovskiy, operator F.Verigo-Darovskiy), "Musulmon qizi" ("Buxkino", 1925 y., rejissyor D.Bassaligo, operator V.Dobryanskiy), "Paxtaorol" ("Sharq yulduzi" k/s, 1925 y., rejissyor-operator SH.Cherbakov), "Quyoshli baxt" ("Sharq yulduzi" k/s., rejissyor V.Krivsov, operator N.Gasilov), "Ikkinchi xotin"

(“Sharq yulduzi” k/s., rejissyor M.Doronin, operator V.Dobryanskiy), “Chodra” (“Sharq yulduzi” k/s., 1927 y., rejissyor M.Averbax, operator A.Lemberg), “Ravot qashqirlari” (“Sharq yulduzi” k/s. 1927 y., rejissyor K.Gertel, operator A.Dorn, kompozitor V.Uspenskiy), “Yopiq furgon”. (“Sharq yulduzi” k/s., 1926 y., rejissyor O.Frelix, operator V.Dobryanskiy), “Moxov ayol” (“Sharq yulduzi” k/s., 1927 y., rejissyor O.Frelix, operator V.Dobryanskiy), “Musulmon qizi” (“Sharq yulduzi” k/s., 1926 y., rejissyor O.Frelix, operator A.Ginzburg), “Masjid qubbasidan” (“Sharq yulduzi” k/s., 1928 y., rejissyor K.Gertel, operator A.Dorn), “Do‘stboy Arabiy” (“Sharq yulduzi” k/s., 1930 y., ssenariy muallifi va rejissyor N.Zubova, operator F.Verigo-Darovskiy), “Bag‘doddan chiqqan amerikalik” (“Sharq yulduzi” k/s., 1931 y., rejissyor N.Klado, operator F.Verigo-Darovskiy) kabi filmlarni misol qilish mumkin.

Ovozsiz kino davrida o‘zbek kinematografiyasi rivojiga rejissyorlar: O.N.Frelix, K.Gertel, M.Doronin, N.N.Klado, operatorlar: A.Dorn, A.Bulinskiy, F.Verigo-Darovskiy, V.Shevchenko, V.Timkovskiy va boshqalar katta hissa qo‘shgan. Shu yillar mobaynida yosh kinoijodkorlar: N.G‘aniev, K.Yormatov, M.Qayumov, F.Xo‘jaev, R.Hamroev, Y.Agzamov, A.Saidovlardan tashkil topgan kino arboblarning guruhi yuksaldi. O‘zbek kinematograflarining ijodi va tasvirga olish texnikasi mukammalashuvi ovozli kino uchun zamin yaratdi.

“O‘lim minorasi” filmini rejissyor V.Viskovskiy sahnalashtirgan, operator F.Verigo-Darovskiy tasvirga tushirgan. Ushbu film O‘zbek kino san‘ati tarixidagi mahalliy afsonalar asosida yaratilgan eng birinchi tarixiy filmdir. Film juda mashaqqatlar bilan suratga olingan. Eng asosiy muammo shundan iborat ediki, film ijodkorlari mahalliy shart-sharoitni, milliy urf-odatlarini, rasm-rusumlarni, turmush tarzini, tilni mutlaqo bilmasdilar. Bu esa film sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Ijodkorlar tomonidan mahobatli dekoratsiyalari bilan “Sohta Sharq” yaratildi [3, 81-b.]. Filmga taniqli aktyorlar jalb etildi. Tabiat sharoitida suratga olishlar Buxoroda o‘tkazildi, pavilondagi tasvirlar esa Moskva va Leningradda olindi. Ishva bilan boqayotgan go‘zal kanizaklar, ehtirosli erkaklar, ekzotik tabiat, “telba” poygalar, murakkab tryuklar, sirlilik va mistika – bularning bari Yevropa tomoshabinini maftun etishi kerak edi. Syujetga asos qilib Buxorodagi o‘lim minorasi (Minorai kalon) haqidagi afsona olingandi.

Ssenariy muallifi A.Balagin minora tarixini bilmagani holda, kambag‘al yigitga oshiq bo‘lib qolgan xivalik go‘zal Jamol haqida melodramatik sarguzasht asari yozgan. Film o‘ta jo‘n, xalq hayotining tashqi ko‘rinishini anchayin no‘noklik bilan tasvirlagan kartina bo‘lib qoldi. Inqilobga qadar mavjud bo‘lgan kino an‘analariga sodiq bo‘lgan operator Verigo-Darovskiy filmni statik tarzda, o‘rta va umumiy planlardan foydalangan holda suratga oldi, natijada kartina maromi ancha sekinlashdi. Isyon epizodida esa rejissyor V.Viskovskiyning ojiz tomonlari sezilib qoldi. Umumiy planda va yuqoridan suratga olingan isyon ko‘targanlar hujumi lavhasi musulmonlarning diniy bayram o‘tkazish uchun masjidga borayotganiga o‘xshab qolgan: “isyonchi”lar shoshilmay, bir tekis qadam tashlab amir saroyini olishga borishmokda.

O‘z navbatida operator Verigo-Darovskiy jangni o‘rnida qo‘zg‘almay turgan apparatda olgan, natijada voqea-hodisalarning faqat kameraga kirgan qismini qayd

etuvchi chet kuzatuvchiga o‘xshab qolgan. Bu epizodni suratga olish usuli shu qadar jo‘nki, ekranda tez-tez qorayishni ham ko‘rish mumkin: bu ommaviy sahna ishtirokchilaridan birontasi qo‘zg‘almas suratga olish apparati yonidan o‘tayotib, gavdasi bilan uning obyektivini to‘sib qo‘ygan. Filmning kamchiliklari mo‘l, lekin shu narsaniyam hisobga olish kerakki, “bu o‘zbek zaminida suratga olingan birinchi film edi. Balki shu sababli bo‘lsa kerak, tomoshabinlar filmni olqishlar bilan qarshi olishdi” [3? 17-b.]. O‘zbek tomoshabinini nafaqat film voqealari, balki o‘ziga tanish voqea-hodisalar kino qilingani ham hayajonlantirib yuborgan.

Operator Verigo-Darovskiyga kelsak, u ko‘p yillar mobaynida “Sevzapkino” studiyasida ishlagan. Bu yillar ichida u bilan bir qatorda inqilobdan burungi kinematografiyadan kelgan operatorlar ham faoliyat ko‘rsatishgan. Bular safida N. Kozlovskiy, I. Frolov, G.Lemberg, YE.Rillo, A.Kyun, A.Drankov va boshqa operatorlar bor edi. Ularning hammasi professional-amaliyotchi edilar. Ularning badiiy madaniyatiga, kasbiy malakasiga havas qilsa arzirdi. An’anaga ko‘ra, ularning ishi apparatni albatta vaterpasga o‘rnatib, ekspozitsiyani aniq belgilash va texnik talabga mos, deyarli bir tekis yorug‘likda, yengil effekt bilan apparat oldida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni suratga olishdan iborat edi.

Apparatning doimiy balandligi – 120 santimetrغا yaqin. Apparatni boshqa joyga olib o‘tish, planlarni umumiy, o‘rta, yirikka almashtirib turish kabi juda sodda ishlarni kamdan-kam hollardagina amalga oshirilgan. F.Verigo-Darovskiyga ham ustuvorlik kasb etgan tartib-qoidalarga o‘zgartirish kiritish oson emasdi. A.Moskvin va Gordanovdan farkli ravishda, u kinotasvir sohasida “inqilob” yasashga qodir emasdi.

Bemalol aytish mumkinki, XX asrning 30-yillari boshida ishlab chiqarilgan birinchi film ovozsiz kino davri o‘zbek filmlari operatorlik san‘atida olg‘a katta qadam tashlash bo‘ldi. 30-yillari studiyada har xil filmlar yaratildi. Ularning badiiy saviyasi ham turlicha edi. Zero, bu filmlarni turli ijodkorlar yaratardilar.

30-yillarda yana bir targ‘ibot-tashviqot filmi “Tixoy sapoy” paydo bo‘ldi. Filmdagi dushmanlar yetakchisini ayol kishi o‘ynadi. Film mualliflarining ushbu tanloviyoq uning muvaffaqiyatsizlik sari yuz burishining ibtidosi bo‘ldi. O‘sha paytlari dushmanlar yetakchisi etib endigina qullikdan ozod bo‘lgan ayol kishini tasvirlash juda o‘ng‘aysiz edi. Buning ustiga, bu ayolning harakatlarida hech qanday ma‘no-mazmun yoki sabab yo‘q, u faqat mualliflarning xohish-irodasini ado etadi, xolos. Aynan mualliflar buyrug‘iga ko‘ra G‘ulomova – istarasi issiq, boshiga doka ro‘mol o‘rab olgan, beliga to‘pponcha osgan, ancha yoshga ham borib qolgan ayol jangovar qiyofaga kirar, ko‘llarini keng askar qayishi orasiga tiqar va har safar kolxozchilar bilan gaplashganida boshini mag‘rur ko‘targancha to‘g‘ri tomoshabin o‘tirgan zalga qarardi.

Filmda kamchiliklar juda ko‘p edi, natijada u maqsadga yetolmadi. Shu sababli, o‘ylashimcha, operatorlar V.Asmus va Adigov ishiga to‘xtalib o‘tirishning ham hojati yo‘q.

Agar ovozsiz o‘zbek filmlaridagi kinooperatorlar ishlarini tahlildan o‘tkazsak, ular dunyo tomoshabinlari uchun hali noma‘lum bo‘lgan, qadimiy madaniyatga, urf-odatlariga, fe‘l-atvoriga ega xalqi bor, o‘z yashash tarzi, muhabbat va nafrati mavjud, ona zaminda yashash uchun kurashayotgan mamlakatni kashf etib berdilar.

Quyosh yog‘dusining mo‘l-ko‘lligi ko‘plab ovozsiz filmlar tasviriy yechimiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Fotografiya qonun-qoidalarini yaxshi biladigan iste’dodli va tajribali operatorlar yorqin quyosh yoritishi hamda ko‘lankalar o‘rtasidagi kontrastdan badiiy foydalanishni eplay oldilar. Yorug‘lik va soyaning mohirlik bilan chog‘ishtirilishi, ularni to‘g‘ri muvofiqlashtirish ajoyib tasvirlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ovozsiz kino davrida kinooperatorlar ishlaridagi yana bir umumiylik – bu ekzotikadan haddan ortiq foydalanish: kadrda albatta yirtiq-yamoq milliy chopon, g‘arib hujralar, sertuproq ko‘chalar, guvala devorlar. Ehtimol buni o‘sha paytlari chindan ham ko‘plab o‘zbeklar shunday uylarda yashagani, kir-chir chopon va do‘ppi kiyib yurgani, aholining bir qismi faqirlikda yashagani bilan izohlash mumkindir. Ijodkorlar bu odamlarning boy ichki dunyosini, ularning mehr-oqibatini, insoniyligini va munosabatlaridagi samimiylikni ko‘rsatolmasdan, tashqi belgilarga zo‘r berdilar.

Garchand bu filmlarda operatorlar mahorati jahon standartlaridan pastroq bo‘lsada, operatorlar tomonidan hayratlanarli darajadagi tasviriy yechimli filmlar yaratilmagan bo‘lsada, ular o‘z filmlari orqali XX asr 20- va 30-yillaridagi o‘zbek xalqi hayotini abadiyatga muhrlab qo‘ydilar.

Bugungi kunlarimizda bu filmlarning har bir kadri xuddi hujjatli kino kabi tomosha qilinadi. Bu operatorlar o‘zlarining mehnatlari, filmlari bilan o‘zbek kinosining yangi avlodi paydo bo‘lishiga zamin yaratdilar. Ular o‘zlari haqida yorqin xotiralar qoldirdilar.

Yillar o‘tib borgani sayin bir narsaga iqror bo‘lamiz: operatorlik san’ati rivojlanishida studiyalarning texnik jihatdan qanday jihozlanganligi muhim ahamiyatga ega. Aksar hollarda o‘zining ijodiy g‘oyasini amaliyotga tatbiq etmoqchi bo‘lgan operatorga kichik studiyalarda topilmaydigan qimmat va zamonaviy suratga olish texnikasi, jihozlari kerak bo‘ladi. Shu sababli ham operator ko‘p hollarda murakkab eksperimentlardan voz kechishga va o‘z g‘oyasini soddaroq yo‘l bilan hal etishga majbur bo‘ladi. Bu esa oxir-oqibat har qanday san’at asarini o‘rtachalikka olib keladi.

Olamshumul filmlarni suratga olgan barcha buyuk operatorlar ajoyib texnikaga ega katta studiyalarda faoliyat ko‘rsatishgan. “O‘zbekkino” texnik yuksalishdan uzoqroqda bo‘ldi va bu ovozsiz kino davrida olingan filmlarning badiiy saviyasida aks etmay qolmadi. 40-yillarda o‘zbek kinosining katta yutuqlari: “Tohir va Zuhra” (1945 y.), “Nasriddinning sarguzashtlari” (1947 y, rej. N.G‘aniev), “Alisher Navoiy” (1948y., rej. K.Yormatov) kabi filmlar suratga olingan. Realistik tarzda suratga olingan ushbu tarixiy filmlarda uzoq o‘tmishning hayoti va madaniyati, jamiyatdagi ichki jarayonlari tasvirlangan.

50-yillarda Toshkent kinostudiyasi mahsulotlari qatoridan dolzarb masalalarga bag‘ishlangan, tarixiy mavzudagi: “Ibn Sino” (1957 y., rej. K.Yormatov), “Qutlug‘ qon” (1956 y., rej. L.Fayziev), “Furqat” (1959 y., rej. Y.Agzamov) filmlarida o‘zbek xalqining o‘tmishdagi hayoti tasvirlangan.

60-yillar kino sohasidagi bir qator yutuqlar bilan esda qolgan. 1959 yilda o‘zbek kinoijodkorlari “O‘zbekfilm” kinostudiyasining yangi binosini qabul qilib oldilar. Bu yerda katta yoshdagi ijodkorlar K.Yormatov, Z.Sobitov, Y.Agzamov,

M.Krasnyanskiy, N.Ryadov, V.Sinichenko, V.Yeremyanlar qatorida yosh ijodkorlar: rejissyorlar SH.Abbasov, A.Xachaturov, A.Hamraev, D.Salimov, R.Batirov, X.Axmar, U.Nazarov, A.Akbaho‘jaev, E.Ishmuxamedov, Q.Kamalova, operatorlar H.Fayziev, D.Fathullaev, L.Traviskiy, T.Eftimovskiy, rassomlar E.Kalantarov, YE.Pushin, N.Raximboev va boshqalar o‘z ijodiy faoliyatlarini boshlaganlar. Ushbu davr kinematografiyasi turli janrlar, yo‘nalishlar va mavzular boyligi bilan ajralib turadi. Bu davrga tegishli tarixiy filmlar: “Ulug‘bek yulduzi” (1965 y., rej. L.Fayziev), “O‘tgan kunlar” (1970y., rej. Y.Agzamov) ham shu davrga tegishlidir.

Ilk marotaba o‘zbek halqining ikkinchi jahon urushi davridagi jasorati aks etgan: “Sen yetim emassan” (1963 y., rej. SH.Abbosov), “Qirq birinchi yil olmalari” (1970 y., rej. R. Botirov), “Oy borib, omon qayt” (rej. L.Fayziev) filmlar ham suratga olindi.

70-yillarda “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan bir nechta tarixiy filmlar suratga olindi. Bular: “Odamlar orasida yolg‘iz” (1974 y., rej. K.Yormatov), “Inson qushlar ortidan boradi” (1976 y., rej. A.Xamraev), “Abu Rayxon Beruniy” (1975 y., rej. SH.Abbasov), “Dahoning yoshligi” (1983, rej. E.Ishmuhammedov) va boshq. Ularda o‘zbek halqi tarixi sahifalari ochilgan, tarixiy shaxslar – shoira Nodira, shoir Mushfiq va olimlar – Beruniy, Ibn Sino siymolari gavdalantirilgan. Bolalar filmi sifatida xalqimizning o‘tmishidan hikoya qiluvchi “Shum bola” (1977 y., rej. D.Salimov) filmi suratga olindi.

70-yillarda horijiy kinostudiyalar bilan hamkorlikda ham bir nechta tarixiy mavzudagi filmlar yaratildi. Bolgariya bilan hamkorlikda urush yillariga bag‘ishlangan “Ikki askar haqida hikoya” (1977 y., rej. Z.Sobitov), Xindiston bilan “Ali Bobo va qirq qaroqchi” (1980 y., rej. L.Fayziev va U.Mehra) filmlar suratga olindi. 1975 yil “O‘zbekfilm” kinostudiyasida ssenariylar ustaxonasi tashkil etilgan.

Mustaqillik yillarida ham “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan bir qator tarixiy mavzudagi filmlar yaratildi. “Kulol va Xurmacha” (1991 y., rej. G.Bzarov), “Marg‘iyona” (1997 y., rej. X.Fayziev), “Buyuk Amir Temur” (1998 y., rej. I.Ergashev, B.Sodiqov), “O‘tgan kunlar”, (1998 y., rej. M.Abzalov), “Otamdan qolgan dalalar” (1998 y., rej. SH.Abbosov), “Voiz” (1998 y., rej. Y.Roziqov), “Alpomish” (2000 y., rej. P.Fayziev), “O‘rtoq Boykenjaev” (2002 y., rej. Y.Roziqov), “Mesh polvon” (2002 y., rej. M.Abzalov), “Qor qo‘ynida lola”, (2003 y., rej. A.Shaxobiddinov), “Yodgor” (2003 y., rej. X.Nasimov), “Afandi va Azroil” (2004 y., rej. X.Nasimov), “Vatan” (2006 y., rej. Z.Musoqov), “O‘tov” (2007 y., rej. A.Shahobiddinov), “Shatranj mamlakati-dagi mo‘jizalar” (2008 y., rej. J.Is‘hoqov, “Qo‘rg‘oshin” (2014 y.), “Berlin - Oqqo‘rg‘on” (2018 y., rej. Z.Musoqov) kabi filmlar shular jumlasidandir. Ularning ko‘plari halqaro kinofestivallarda ishtirok etdi, yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritdi va ko‘pgina mamalakatlarda e‘tirof etildi. Hususan, rejissyor Z.Musoqovning “Vatan” filmi (operator A.Ismoilov) 2007 yilda Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida o‘tkazilgan 50-Xalqaro kinofestivalda “Osiyoning eng yaxshi filmi” nominatsiyasida g‘olib bo‘lgan. Huddi shu film 2006 yilda Rossiyaning Smolensk shahrida o‘tkazilgan Xalqaro kinofestivalda bosh mukofot va diplomga sazovor bo‘lgan.

Mashhur operatorlardan biri V.Chumak shunday deb yozadi: “tomoshabinga voqea ishtirokchisi sifatida qarash, uni dunyoqarash va bilim doirasini hisobga olish – bu kino san’atining rivojlanish yo‘lidagi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Agar tomoshabinga fikrlash imkoni berilsagina, u film voqealarini aniq tahlil qila oladi.” [4, 53-b.]. Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda aytish mumkinki, kino san’atining inson ongi va tafakkuriga, jamiyat hayotiga ta’siri katta.

Tarixiy haqiqatni to‘g‘ri yetkazib berish talabi nafaqat kadrda joy olgan dekoratsiya, o‘sha tarixiy davrga hos liboslar, rekvizitlarga, balki bevosita rejissyorning aktyorlar bilan ishlash yo‘nalishiga, operatorning filmni tasvirga olishda foydalanadigan tasvirga olish uslublariga ham bog‘liq. Kino san’ati san’at sifatida shakllanib ulgurgan davrlardan boshlab kinoijodkorlar tarixiy mavzudagi ko‘plab filmlarni tomoshabinlar hukmiga havola etdilar. O‘tgan, qariyb 100 yillik davr ichida turli mamlakatlarda, turli davrlarda, turli ijodkorlar tomonidan son sanoqsiz tarixiy filmlar yaratildi. Natijada o‘ziga hos “tarixiy film” uslubi shakllandi. Bu uslub asosan rejissyorlik va operatorlik san’atlariga dahldor desak xato bo‘lmaydi, nazarimizda. Faqatgina tarixiy filmlarga hos bo‘lgan kadr kompozitsiyasi, tasvirga olish usullari shakllandi. Bu holat dunyo kino san’atida yaratilgan barcha filmlarga hos deyish mumkin. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, “tarixiy uslub” jahonning barcha mamlakatlar kino maktablarida shakllanishi bilan birga ana shu mamlakat kino san’atining milliy hususiyatlarini ham o‘zida aks ettirgan holda shakllana bordi.

Fikrimizga misol sifatida Rossiya kino san’atiga hos bo‘lgan “tarixiy uslub” haqida fikr yuritamiz. Rossiya kinosida XX asrning dastlabki 30 yilida yaratilgan “Stachka”, “Potyomkin” zirxli kemasi”, “Sankt-Peterburg tanazzuli”, “Ona” va boshqa filmlarda ularga hos bo‘lgan umumiy hususiyatlarni kuzatish mumkin. Bu aktyorlar ijrosidagi teatrda hos bo‘lgan pafosli ijro, operatorlik san’atidagi kontrastli yoritish uslubi, o‘tkir burchakli rakurslar, ko‘proq pastki rakurslardan foydalanish, muvozanatlanmagan kompozitsiya, atayin qiyshaytirib olingan yirik planlar, assotsiativ montaj uslubi, ichki dinamika va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Dunyoning boshqa mamlakatlari filmlarida bunday ekspressiv va shu bilan birga tabiiy yo‘nalish kuzatilmaydi.

Ekspression uslub nemis kinosiga ham hos, biroq u rus kinosidan anchagina farq qiladi. Nemis kinosida yaratilgan filmlar kompozitsiyasida tashqi belgilar, ya’ni aqqol namoyon bo‘ladigan vositalardan, masalan maxsus grimdan, maxsus ekspressionistik dekoratsiyalardan foydalanilgan. Afsona yo‘nalishida tasvirga olingan, “Doktor Kalligarining kabineti” (1920 y. rej. R.Vine), “Golem, u qanday dunyoga keldi”, (1917 y., rej. P.Vagner), “Nosferatu”, (1921 y., rej. F.V.Murnau) kabi filmlarda nostandart dekoratsiyalar orqali tarixiy va afsonaviy muhit yaratilgan.

Rus kino san’atida XX asrning 40-60 yillarida yangicha “tarixiy uslub” shakllandi. Bu avvalo dunyo kino san’atida sodir bo‘layotgan inqilobiy o‘zgarishlarning ta’siri, qolaversa rus millatining milliy harakteri va kino san’ati an’analarning ta’sirida shakllangan.

2002 yilda Germaniya, Kanada va Buyuk Britaniyalik kinoijodkorlar tomonidan “K-19” filmi suratga olingan. K-19 atom suv osti kemasi 1961 yilda birinchi marta avariya uchragan. Uning yadro rektorida nosozlik yuzaga kelgan

va natijada 40 ga yaqin odam halok bo'lgan. Film suv osti kemasi ekipajining matonati, qahramonligi va vatanparvarligi haqida hikoya qiladi. Rossiyalik tarixshunos mutaxassislar filmda faqatgina tarixiy faktlar bo'yicha konsultant sifatida ishtirok etganlar. Tarixiy-fojeaviy, drama janrida yaratilgan mazkur film rejissyori Ketrin Bigelou, postanovkachi operator esa Jeff Kronenvet.

Filmni suratga olishar ekan Yevropalik kinoijodkorlar nafaqat Rossiya tarixiga hos ayanchli va bir vaqtning o'zida haqiqiy vatanparvar qaxramonlar haqidagi voqeani ko'rsatib berishga intilishgan, balki uni haqiqiy "ruscha uslubda" yaratishga harakat qilishgan. Filmdagi kadrlar, epizodlar, aktyorlar ijrosi, yoritish uslubi, xatto kamera xarakati ham "ruscha" uslubda namoyon bo'lgan. Agar tomoshabin filmni rus tilida tomosha qilsa va Xarrison Ford, Liam Niison, Piter Sarsgaard, Sem Spruell kabi Yevropa va AQSH kinosi yulduzlarini tanimasa, bu filmni 100% rus kino ijodkorlari tomonidan yaratilgan deb o'ylashi aniq. Chunki, ijodkorlar ekranda haqiqiy rus kinosi ruhiyatini ko'rsata olgan. Ular Rossiya kinosida XX asrning 40-60 yillarida xarbiy vatanparvarlik mavzusida yaratilgan filmlarga hos bo'lgan "tarixiy uslub"ni yarata olganlar.

Albatta biz bu misolni har bir mamlakatning o'z milliy kino hususiyatlariga hos uslubi, o'ziga hos tarzda rivojlangan "tarixiy uslubi" borligiga dalil sifatida keltirdik. Dunyo kinosida bunday misollar talaygina. Tarixiy filmlarni yaratishda ijodkorlar oldida turgan eng birinchi vazifa bu davr ruhini ekranda ko'rsatib berishdir.

Tarixiy filmlardagi kadr kompozitsiyasi yoki epizod kompozitsiyasi o'zining turg'unlikka, vazminlikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Lekin, filmning syujet rivojidan, janridan kelib chiqib film kompozitsiyasi, uning dinamikasi farq qilishi mumkin. Ko'p hollarda tarixiy filmlarda statik holdagi tasvirlarni kuzatish mumkin.

Tarixiy filmlarni yaratishda yorug'lik bilan ishlash operatoridan katta mahoratni talab qiladi. Chunki, uzoq tarixga bag'ishlangan tarixiy filmlarni suratga olishda ko'pincha operatorlar minimal yorug'lik sharoitida ishlash talab etiladi. Bunga sabab oddiy, uzoq tarixda kuchli yorug'lik beruvchi sun'iy yorug'lik manbaalari mavjud emas edi. Agar operator olis o'tmish haqida film suratga olayotgan bo'lsa va bu voqealar tun sharoitida ro'y berayotgan bo'lsa, operator kuchli yorug'lik vositalaridan foydalansa bu holat tomoshabinda film voqealarining haqqoniyligiga nisbatan shubha bilan qaray boshlaydi. Bu juda qo'pol xato hisoblanadi. Zotan, ishonchlilik va haqqoniylik tarixiy janrga qo'yiladigan talablarning eng asosiysidir.

Tarixiy biografik filmlarda shu bilan birga rangdan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi tarixiy obrazlarning xarakterini ochib berish uchun rang xal qiluvchi o'rin egallaydi. Xatto muayyan tarixiy shaxsning obrazi aniq bir rang bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Tarixiy shaxslarning obrazi ular yashab o'tgan davr va ular boshqargan mamlakatlarning timsollari, masalan oq, qizil ranglardagi atirgul, lola guli, beda yaprog'i va ana shularga oid ranglar, yoki bo'lmasa oltin, kumush yoki boshqa rangilar bilan bog'liq bo'ladi. Tarixiy shaxslar xaqida gap ketganda insonlarning aksariyat qismida ana shu tarixiy shaxslar bilan bog'liq shakllanib qolgan assotsiatsiyalar mavjudligini ko'ramiz. Yevropaliklar uchun Chingizxon obrazi qon va qonho'rlik ramzi bo'lgan qizil rang bilan assotsiatsiyalanadi. Yevropaliklar uchun buyuk turk Usmoniylar imperiyasi o'ziga

xos qonxo‘r va zolim imperiya sifatida gavdalanadi va qizil va qora ranglar bilan assotsiatsiyalanadi. Buning ustiga Usmoniylar imperiyasining mohir jangchilari, askarlari bo‘lgan Yanicharlarning (Usmoniylar imperiyasining jangchi askarlari) jang kiyimlari ham, imperiya bayrog‘i ham qizil rangda bo‘lgan. Turkiyaning bugungi kundagi bayrog‘i ham aynan qizil rangda bo‘lib, u Turkiyaning buyuk va shonli tarixidan dalolat sifatida aynan qizil rang saqlab qolingan.

Qizil rang yana Sobiq ittifoqning, Xitoy xalq respublikasining, shu bilan birga Rim imperiyasining ham ramsi sanaladi. Ana shu mamlakatlar va imperiyalarning xukmdorlari ham filmlarda qizil rang bilan bog‘liq xolda gavdalantiriladi.

Tarixiy filmlarni suratga olishda operator avvalo muayyan uslubni, aniq bir kompozitsion, yorug‘lik va rang, qolaversa, tasvirga olish uslubini ham tanlab oladi. Albatta, bu ishni u film rejissyori va rassomi bilan hamkorlik va hamfikrlikda bajaradi. Tanlab olingan uslub filmning barcha komponentlarining uslubi va yo‘nalishini, xattoki montaj yo‘nalishi, aktyorlar ijrosining qanday bo‘lishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Tarixiy biografik filmlarda tarixiy shaxslarning obrazlarini yaratishda yorug‘lik bilan ishlashning ham ahamiyati katta. Chunki kino san‘atida yoki televizion filmlarni yaratish jarayonining o‘zini ham yorug‘liksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Kinoda yorug‘lik bu huddi musavvir qo‘lidagi mo‘yqalam kabidir”, degan edi mashxur kinorejissyor Temur Bekmambetov “Kino alani” jurnaliga bergan intervyusida.

Kinorejissyor Frensis Ford Koppolaning “Apokalipsis bugun...” filmida qo‘zg‘olonchilar boshlig‘i bo‘lgan afsonaviy generalning obrazini yaratish uchun filmga mashxur aktyor Marlon Brondo taklif etilgandi. Biroq aktyorning tashqi ko‘rinishi, uning jismoniy ko‘rsatkichlari mashxur generalning ko‘rinishiga yaqin ham kelmasdi. Shunda italiyalik iste‘dodli kinooperator, “Eng yaxshi operatorlik ishi uchun” bir nechta Oskar mukofoti sohibi Vittorio Storraro yorug‘likdan mohirona foydalangan holda tamomila kutilmagan lekin juda muvaffaqiyatli qarorga keladi. U M.Brondoni rutubatli va bo‘g‘iq muhitga g‘arq qiladi. U aktyorning faqat boshi, yuzini va yelkasining bir qisminigina yoritib, asosiy e‘tiborni uning ruhiy kechinmalari va so‘zlariga qaratadi. Natijada ekranda mavhumlik, qo‘rqinch, sirlilik, yovuzlik, qudrat kabi tushunchalarning qorishig‘idan tashkil topgan qaxramon obrazi yaratiladi. E‘tiborlisi shundaki, xayotda ham bu generalni ko‘rgan va u haqida eshitgan insonlarda aynan shu tasavvur shakllangandi.

Tarixiy sarguzasht filmlar operatorlarga ijod qilishlari uchun juda keng imkoniyat beradi. Aynan shunday filmlarda operatorlarga ijod qilishlari, tasavvurlariga erk berishlari uchun yetarli darajada boy material mavjud bo‘ladi. Tarixiy sarguzasht filmlarda ishlab operator juda katta malakaga ham ega bo‘ladi. Chunki bunday filmlarda maxsus effektlar, yoritishning barsa effektli turlari qo‘llaniladi. Tasvirga olishning ham qariyb barcha usullari, harakatdagi kamera, operatorlik krani, rels-aravalardan foydalanish va boshqa usullardan keng foydalanish imkoniyati mavjud.

Tarixiy-biografik film janri ham, aytish mumkinki, umuman kino san‘atidagi tarixiy janrning eng birinchi bo‘lib shakllangan turlaridan biridir. Chunki, insoniyat

eng avvalo tarixiy voqealarni yodda saqlaydi va uning eng markazida har qachon tarixiy shaxs turadi. O'tgan XX asr davomida milliy kino san'atimizda ham ko'plab tarixiy-biografik hamda afsona-ertaklarga asoslangan yo'nalishdagi filmlar yaratildi. Vatanimizda tarixiy-biografik hamda afsona-ertaklarga asoslangan yo'nalishdagi ilk filmlar ovozli kino davrida, ya'ni XX asrning 30-40 yillardagi davri operatorlar F.Verigo-Darovskiy, A.Dorn, V.Dobryanskiy, A.Ginzburg, N.Gasilov, A.Lembergning nomi bilan bog'liq.

Ovozli kino paydo bo'lgan davrdan boshlab vatanimizda yangi "oltin" davr shakllandi deyish mumkin. 50-80 yillarni o'z ichiga oluvchi bu davrda operatorlar D.Demuskiy, M.Krasnyanskiy, A.Pann, L.Eftimovskiy, H.Fayziev, A.Ismailov va boshqa ko'plab iste'dodli kinooperatorlar ijod qildilar. Ular tom ma'noda o'zbek kinooperatorlik san'ati ravnaq topishiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlar sifatida tarixda qoldi.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida O'zbekistonga boshqa davlatlarning kinostudiyalari evakuatsiya qilingan edi. Toshkentda Moskva, Leningrad, Kiev kinostudiyalari ijodkorlari faoliyat yuritgan. Turli studiyalar hamkorligida esa urush yillari davriga bag'ishlangan "Ikki jangchi", "Aleksandr Parxomenko" (rej. L.D.Lukov), "217-raqamli odam" (rej. M.I.Romm) kabi filmlar suratga olingan. Bundan tashqari, o'zbek kinoijodkorlari halqning vatanparvarlik ruhini ko'tarish maqsadida milliy mumtoz asarlarga, doston va rivoyatlarga asoslangan "Nasriddin Buxoroda" (rej. Y.Protazanov), "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy" (rej. N.Ganiev), "Frontdagi do'stlarimizga" va "Vatanimga sovg'a" (rej. K.Yormatov) kabi ko'plab film va kinokonsertlar suratga olingan.

"Tohir va Zuxra" (rejissyor N.G'aniev, operator D.Demuskiy, rassom V.Yeremyan) filmi urushning so'nggi yillarida kino ekranlarga chiqarildi. Ilk kinooperatorlardan biri D.Demuskiyni nafaqat rus kinematograflari balki, o'zbek kinochilari ham mahoratli operator sifatida tilga oladi. Uni o'zbek kinosida kinooperatorlik maktabining asoschilaridan biri, deb e'tirof etishadi.

O'zbek hujjatli kinosi asoschisi M.Qayumov D.Demuskiy haqida eslar ekan shunday degandi: "...U menga ko'rishni o'rgatdi. Go'zallikni, detallarni tushunishni, aniq va sezgirlik bilan ko'rishni o'rgatdi. Unga qadar mening nigohim atrofimdagi olamni oddiygina qabul qilishga o'rganib qolgandek edi. Men aksar hollarda u kishiga g'ayritabiyy, hayratlanarli bo'lib ko'ringan narsalarni payqamasdim. Keyinchalik uning ekranida paydo bo'lgan narsalar o'ylab topilmagan, sahnalashtirilmagan edi. U hayotni shunday ko'rardi. U borliqni shoir kabi sevardi, shoir kabi tasvirlardi, predmet uxshashligiga yopishib olmasdi, ekran poetik obrazni olib chiqardi, shunday his qilardi, shunday munosabatda bo'lardi. Uning uchun "neytral" peyzajning, ahamiyatsiz odamning o'zi yo'q edi. Uning filmlarida hammasi bir qarashda jo'n va oddiy edi, ammo ijodkorning nigohi tushganidan so'ng go'zallikka, o'ziga xoslikka aylanardi. Ko'chalar, ariklar, sahrolar, bog'lar – barisi shunday shoirona nafas olar, tasviriy musiqadek yangrardiki, meni hayratga solar va, yashirmayman, hasadimni ko'zgar edi. Biz u kishini "domla" deb atardik. O'zbeklar ustozni shunday deyishadi...[5, 46-b.].

"Tohir va Zuxra" filmi tasvirga olar ekan D.Demuskiy yorqin, iliq va ko'taringi ruh beruvchi yoritish uslubidan foydalanishga, ekranda mayin nur-soyali

tasvir hosil qilishga, osiyo tabiatiga hos kengliklarning tonal perspektivasini aks ettirishga, maftunkor tabiatdan fon sifatida foydalanishga intiladi. Shu bilan birga o‘zining asosiy tamoyili – tomoshabin diqqatini kadrdagi asosiy voqeaga qaratish va ana shu voqeaga alohida urg‘u berishni ham esdan chiqarmaydi. Xalqning yashash tarzini, o‘ziga hos xarakterini, tarixiy arxitektura obidalari, tasviriy san’at namunalari, rangtasvirini, miniatyura san’atini chuqur o‘rganganligi, shuningdek xronikal kinodagi ko‘p yillik tajribasi D.Demuskiyga ekranda O‘rta Osiyoning o‘ziga hos poetik obrazini yaratishga yordam berdi.

“Tohir va Zuxra” liro-epik poemasi, Volga bo‘yi va O‘rta Osiyoning turkiy halqlarida, shu bilan birga Ozarbayjon va Turkiyada tarqalgan. Syujetning asosi ko‘p rivoyatlarda deyarli bir hil; bu yovuz podsho – qizning otasining zulmi natijasida bir-biridan ayrilgan va halok bo‘lgan ikki sevishtan qalblarning ayanchli qismati haqidagi tragik rivoyat. Feodallik davriga mansub barcha rivoyatlarning g‘oyaviy asosi – adolat uchun kurash. Rivoyatning o‘zbek halqida saqlanib qolgan shakli o‘zida halq afsonalar og‘zaki ijodiyotining fantastika elementlarini saqlab qolgan.

“Tohir va Zuxra” filmi – O‘zbekiston hududida hamda chet mamlakatlar kinoekranlarida ham birday omadli namoyish etilgan o‘zbek kinosining eng birinchi yirik kinoasaridir. Film o‘zida buyuk insonparvar g‘oyalarni – barcha to‘siqlarni yengib o‘tishga qodir muhabbat va ozodlik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan.

Filmning tasviriy yechimi juda omadli topilgan. Rassom V.Yeremyan o‘z eskizlarida, dekoratsiyalarida aniqlik va shu bilan bir paytda obrazlilikni mujassam qila oldi. U mashhur afsonaning koloritini vabetakror nazmiy xarakterini, o‘ziga hosligini ekranda aks ettira oldi. Demuskiy harakter va obrazlarga qurilgan kinematografning asoschilaridan biri edi. U o‘zining eng yaxshi kinoasarlarida kinooperatorlik san’atining bor qudratini namoyish eta olgan. Doimo faollik, ekran asariga har vaqt mualliflik darajasidagi yondashuv, yorug‘lik gammasi va operatorlik optik jixohlaridan katta mahorat bilan foydalana olish, nozik badiiy did, musiqiylik va lirizm, aniqlik va lo‘ndalik, tasviriy ifoda usullarining boyligi va sermazmunligi – bu sifatlarning barchasi D.Demuskiyning ijod uslubiga aloqador.

Demuskiyning haqiqatda kino san’atidagi shoir, tabiat kuychisi deb atash mumkin. Uning filmlarida tabiat ko‘rinishlari shunchaki kadr ortidagi fon sifatida emas, balki faol, o‘z rolini maromida ijro etayotgan aktyor singari qad rosloydi. D.Demuskiyning mahorati film qaxramonlarining ekran obrazi va harakterlarini yaratib berishda, portretlarni individualizatsiya qilishda har bir yangi film davomida beto‘xtov o‘sib, shakllanib bordi. U har bir harakterga uning o‘ziga mos va hos bo‘yoqlardan foydalanishga intildi. “Monokl” bilan turli ranglar uyg‘unligida, lekin har doim ma’lum dramaturgiyaga bo‘ysundirilgan, obrazlilik kasb etgan holda suratga olingango‘zal tabiat manzaralari, ayniqsa, ular “Tohir va Zuhra” filmida yaxshi ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, xonning hashamatli bog‘iva hovuz oying sirlil kumush nurlaribilan yoritilgan, go‘zal kecha sahnasi – u o‘zining tasviriy yechimi va kayfiyati bilan «Yer» filmidagi tungi sahnalarni yodga soladi.

“Tohir va Zuhra” filmidagi kuplab kadrlar katta poeziya, yorug‘lik, tabiatga nisbatan muhabbat bilan to‘ldirilgan. Bu o‘rinda Tohir va Zuhraning oqshom bog‘da uchrashgan sahnasini eslash kifoY. Epizod kunduz kuni suratga olingan. Demuskiy

bu kadrlarda ham qahramonlarning ichki to'lg'anishlarini, talpinishlarini bera olgan. Qahramonlarni peyzaj bag'riga tashlab, u sevishtanlar uchun ajoyib muhit yarata oldi. Tabiat ulug'vorligini Demuskiy xon o'kidan Tohirning otasi halok bo'ladigan "Ov" sahnasida ham namoyon etdi. Bu sahna uchun rejissyor va operator Urgutdagi asrluk ulkan chinorlar o'sib yotgan katta maydonni tanlashdi. Bu daraxtlar orasida tasvirga olingan epizod ishonchli chikdi – qahramonlarning fojiaiviy holatlari badiiy tomoshabop kilib berilgandi.

Bu kadrlarda tasvirlarning tiniqligi, kompozitsion mukammalligi, serma'noligi bilan bir qatorda so'lim tabiat kengliklarini bor go'zalligi, salobati bilan aks ettirishga ham muvaffaq bo'lgan. O'z peyzajlarida Demuskiy musiqani his etardi. Ularda Demuskiy musiqani eshitardi. Bu borada u shunday derdi: "Men foto yo'nalishi bo'yichami, kino yo'nalishi bo'yichami biron yirik yoki mas'uliyatli nimanidir yaratar ekanman, hamisha qandaydir musiqani his etaman, fotosuratlarimda, ayniqsa kinokadrlarimda qandaydir musiqiy shaklni rivojlantira boraman. Uning rivojlanish mantig'ida... men hamisha oldimda turgan ijodiy vazifalarni amalga oshirishimdagi ko'llab-quvvatlashni topaman".

Demuskiy ushbu filmda bizga bir qator portret san'ati durdonalarini taqdim etgan. Yosh sevishtanlar Tohir va Zuhralarning portretlari tasviriy jihatdan pastel ranglarda hal etilgan. Ular shaffof va musiqiylik kasb etgan va qaxramonlarning pok, muhabbatga to'la yosh qalblarini ifodalaydi.

Quyosh nurlarining nozik mavjlanishi, qaxramonlarning yengil va yorqin liboslari – bularning barchasi impresionist rassomlarning iliq kayfiyatga yo'g'rilgan ijod mahsullarini eslatadi hamda bahtdan sarmast bo'lgan ikki sevishtan qalblarning obrazlariga mos holda ularning his tuyg'ularini juda yaxshi ifoda etgan. O'zbek kinooperatorlik san'atidagi bu kabi yangiliklar yillar davomida rivojlanib keldi. Bu jarayon o'zbek operatorlik maktablarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

"Alisher Navoiy" filmi g'azal mulkning sultoni, mutaffakkir olim, adib va shoir Mir Alisher Navoiy xayoti xaqida bo'lib uning do'sti, Temuriyzoda shaxzoda Xusayn Boyqaro xukmronlik qilgan davrlarni o'zida aks ettiradi. Film boshida Boyqaro va Navoiyning kiyimlari bir xil bo'lib film davomida navoiyning kiyimi oqlik, boyqaroning kiyimi esa qora ranglarga moyillik kasb etib boradi. Film sungida esa kiyimlar 100% rangda ajraladi.

"Alisher Navoiy" filmidagi fojeali voqealardan biri (shahzoda Mo'minning o'ldirilishi) ssenariyda "mo'g'ul xonining qarorgohiga o'xshash" saroyda bo'lib o'tadi deb yozilgan. Aynan shu qisqa jumlani rassom va rejissyor, operator bilan birgalikda mudhish-alamli epizodga aylantiradilar. Filmni diqqat bilan ko'rayotgan tomoshabin o'rta asrga xos qo'rqinchli muhit sharoitini chuqur anglab olishi qiyin emas. Bu lavha o'z mazmuni va tasviriy yechimi bilan filmning katta yutuqlaridan biridir.

D.Demuskiy boshlab bergan an'anani davom ettirgan shogirdi M.Krasnyanskiyning "Alisher Navoiy", "Nasriddinning sarguzashtlari" kabi kartinalari nafaqat O'zbekistonda balki, jahon kinomatograyafiyasining oltin fondidan joy olgan. Yuqorida nomi keltirilgan san'atkorlar maktabi asosida o'zbek kinooperatorlik san'ati rivojlandi.

60-yillardan boshlab o'zbek milliy kinosi rivojida sezilarli darajada iz

qoldirgan yangi davr boshlandi. Respublika kinosiga bir qator iste'dodli yosh ijodkorlar – rejissyorlar, ssenaristlar, operatorlar va rassomlar kirib keldilar. Badiiy kinoda VGIK bitiruvchilari yosh rejisserlar D.Salimov, A.Xamraev, E.Eshmuxamedov “O‘zbekfilm” kinostudiyasiga o‘zlarining yangi mavzusi, yangicha dunyoqarashi va asosiysi zamonaviy ijodiy uslublari bilan kirib keldilar. Studiyaga yosh operatorlar – X.Fayziev, D.Fatxullin, L.Traviskiy, T.Eftimovskiy, A.Ismailov va kino rassomlari E.Kalantarov, N.Raximbaev, V.Dobrin, S.Ziyamuxamedov va B.Nazarovlar ham kelishdi. Ularning ko‘pchiligi ham VGIK bitiruvchilaridir. Bu yosh rejissyorlar, operatorlar, rassomlar o‘zlarining ilk ijodiy ishlaridanoq iste'dodli ijodkorlar sifatida namoyon etdilar.

60-70 yillardagi o‘zbek kinosidagi novatorlik yosh va iste'dodli kinorejissyor SH.Abbasov ijodidan boshlandi. 1960 yilda rejisser SH.Abbasov o‘zining ilk to‘liq metrajli filmi – “Mahallada duv-duv gap” (ssenariy mualliflari A.Ramazanov, B.Rest) filmini suratga oldi va bu bilan o‘zini iste'dodli va betakror ijodkor sifatida ko‘rsatdi. Zamonaviy syujetli bu kinokomediya o‘zbek xalqining yashash tarzi o‘zgarib borishi bilan insonlar psixologiyasining ham o‘zgarib borayotganligidan hikoya qilardi. Film yoshlar taqdirini belgilashdagi bilan bog‘liq eski udum va an‘analarga ustidan kuladi. Postanovkachi-operator V.Vladimirov, postanovkachi-rassom E.Kalantarov filmning tasviriy dramaturgik plastikasini juda aniq va ifodali qilib hal qila olishgan.

Kinorejissyor SH.Abbasovning 1962 yilda mamlakat ekranlariga chiqarilgan “Sen – yetim emassan” (ssenariy muallifi R.Fayzi, postanovkachi-operator X.Fayziev, postanovkachi-rassom E.Kalantarov) filmi bu davrdagi o‘zbek kinosida yana bir muhim voqea bo‘ldi. Filmda Ulug‘ Vatan urushi yillarida Tashkentlik Shoaxmad va Baxri Shomaxmudovlar tomonidan turli millatlarga mansub bolalarni boqib olish va tarbiyalashlari haqidagi hayajonli hikoya ishonarli va yorqin hikoya qilib berilgan. “Sen – yetim emassan” kinofilmi o‘zbek kinosining yuksak g‘alabasi bo‘ldi. Film o‘zining bevosita haqqoniyligi bilan, kuchli rejisserslik ishi bilan tomoshabinlar qalbidan chuqur joy oldi.

Internatsionalizm mavzusi SH.Abbasovning yana bir filmi – “Toshkent – non shahri” (A.Neverovning shu nomli mashhur asarining ekranizatsiyasi) filmida davom ettirildi va chuqurlashtirildi. Bu 60-yillar o‘zbek kino san‘atining yirik asari bo‘ldi. Rejisser SH.Abbasov, operator X.Fayziev, rassom E.Kalantarov insonlarga nisbatan dildan muhabbat, ekranda davr muhitini mohirona yaratib berish, badiiy haqiqat bilan tomoshabinlarni jalb qildilar.

60-yillar oxiri va 70-yillarda o‘zbek kinematografchilari g‘oyaviy-badiiy yetuklik jixatdan yangi bosqichga yetdilar. SH.Abbasov, A.Xamraev, E.Eshmuxamedov kabi yosh rejissyorlarning novatorlik g‘oyalari, izlanishlari “Toshkent – non shahri”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Sevishganlar”, “Inson qushlar ortidan boradi” kabi durdona asarlarni yaratishga imkon berdi.

O‘zbek kinosining rivojiga T.To‘la, R.Fayzi, S.Axmad, O‘.Umarbekov kabi qator yetuk milliy adiblarimiz qatorida S.Muxamedov, O.Agishev, D.Bulgakovdek professional ssenaristlar ham juda sermahsul ijod qildilar. Milliy filmlarimizga M.Ashrafiy, I.Akbarov, R.Vildanov, D.Zokirov, M.Leviev, S.Yudakov, F.Yanov-Yanovskiy kabi iste'dod egalari musiqa va qo‘shiqlar bastaladilar.

Tarixiy janr kino san'atida, yuqorida aytib o'tganimizdek, kino san'atining o'zi bilan bir davrda yuzaga keldi va rivojlana boshladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarixiy janr o'sha davr kino ijodkorlari uchun u qadar yangilik emas edi. Chunki, tarixiy janr avvalo adabiyotda, tasviriy san'atda, 18-asrning 30-yillaridan boshlab esa fotografiya san'atida mavjud edi va o'z rivojlanishining yuqori nuqtasiga yetib ulgurgandi. "Harakatdagi tasvir"ning paydo bo'lishi ijodkorlarning ko'plab tarixiy asarlarni ekranlarga ko'chirishga yana bir turtki bo'lgan xolos desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Rejissyor Sharl le-Barjining 1908 yilda suratga olingan "Giza Gersogining o'ldirilishi" nomli filmi, kinoda ilk maxsus effektlar ixtirochisi, yaratuvchisi bo'lgan Jorj Melesning "Faust va Margarita" (1897 y.), "Turnavosning zabt etilishi" (1897 y.), "Janna D'Ark" (1900 y.) "Robinzon Kruzo" (1902 y.), "Gamlet" (1907 y.) kabi tarixiy va tarixiy-sarguzasht mavzudagi kino asarlari ham fikrimizni isbotlaydi.

Xuddi boshqa janrlar kabi yuzaga kelgan davrdayoq tarixiy janr ham kino san'atida o'zining mustaxkam o'rniga va o'ziga hos shakliga, yo'nalishiga ega bo'ldi. Shu bilan birga bu janr rejissyorlarga tarixni chuqur bilish, tarixiy faktlar va xujjatlar bilan ishlash malakasini bergan bo'lsa, operatorlarga tarixiy voqeylikni aks ettirishda yangicha kompozitsion uslublar, yoritish va rangdan foydalanish, kamera harakati, statik kadrlardan foydalanishda o'ziga hos, faqat tarixiy janrdagi filmlarga xos uslublar jamlanmasini taqdim etdi.

Operator, albatta kino rassomi bilan birga hamkorlikda tarixiy filmning tasviriy uslubini, uning rang va yorug'lik stilistikasini, umuman filmning tasviriy yechimini belgilab beruvchi eng asosiy mutaxassislardan biridir. Operatorning qay darajada malakali, bilimli va iste'dodli ekani ayniqsa tarixiy filmlarni suratga olishda ayniqsa ko'zga yaqqol tashlanadi. Balki, aynan shuning uchun ham ko'p operatorlar tarixiy mavzulardagi filmlarni suratga olishga ko'p ham kirishmaydilar.

O'tgan XX asrda o'zbek kinosida ko'plab buyuk kinorejissyorlar va operatorlar, rassomlar va bastakorlar ijod qildilar va ko'plab tarixiy filmlarni yaratdilar. Ularning ko'pchiligi bejiz UNESCOning oltin fondiga kiritilmagan. Ana shunday buyuk ustoz kinooperatorlardan D.Demuskiy, M.Krasnyanskiy, L.Eftimovskiy, X.Fayziev, A.Ismoilov, Y.Klimenko, D.Fatxulin, A.Pann va boshqalardan milliy kino san'atimizga hos kuchli operatorlik maktabi qoldi. Ayniqsa, tarixiy mavzulardagi filmlarni yaratishda yuqorida sanab o'tilgan operatorlarning ko'rsatgan mahoratlari taxsinga sazovor.

Qariyb bir asrlik davr davomida rivojlanib kelayotgan o'zbek operatorlik maktabi, tarixiy filmlarning tasviriy yechimi masalasi, bugungi kunda tobora kam suratga olinayotganligi chuqur ilmiy o'rganib chiqishga arziqli masalalardan biridir. Ilmiy tadqiqot ishida yuqorida ko'rib chiqilgan filmlar taxliliga, tadqiqot natijalariga asoslangan natijalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, o'tgan XX asrda yaratilgan tarixiy filmlarning badiiy sifati, ulardagi operatorlik san'ati juda yuqori bahoga munosibdir. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, o'zbek operatorlari tomonidan tarixiy filmlarni yaratishda o'ziga xos uslub, maktab yaratilgan. Operator D.Demuskiy o'zbek tarixiy filmlarida "Poetik", ya'ni nazmiy uslubni yaratgan bo'lsa, X.Fayziev kontrastli yoritish va keskin kompozitsiyalarga asoslangan o'ziga hos dinamik uslubni yaratdi. Iste'dodli kinooperator Y.Klimenko esa metaforalar va

ramzlarga asoslangan yangicha nazmiy uslubni yaratdi. Operator A.Ismailov tasvirga olgan kadrlarda dokumental kinoga hos bo'lgan haqqoniylik, oddiylik va xalqchillikni o'zida jamlagan "Xujjatlilik" uslubi ustunlik qiladi. Operator A.Pann ijodida esa Vestern tarixiy janriga xos bo'lgan ichki dinamika, chuqukr soyali va juda kontrastli yoritilgan kadrlar, faol harakatdagi kamera, yirik planlarga boy uslubga asos soldi.

Bugungi kunda, umuman mustaqillik yillarida o'zbek kinosida tarixiy mavzudagi filmlarni yaratish borasida o'ziga hos turg'unlik davri yuzaga keldi. Bunga sabab sifatida avvalo mustaqillikning dastlabki yillarida kishilar ongida yuzaga kelgan mafkuraviy bo'shliq, eski mafkura tanazzuli tufayli ag'dar-to'ntar bo'lib ketgan tarix, tarixiy asarlar, ssenariylarning yozilishi keskin kamayib ketgani, moliyaviy muammolar, rejissuradagi ayrim kamchiliklar va boshqa bir necha omillarni keltirish mumkin.

O'tgan 26 yillik davrda bir qancha rejissyorlar tomonidan qator tarixiy badiiy va televizion filmlarni yaratishga qo'l urdilar. Biroq shuni tan olish kerakki, ularning ko'pchilik qismi juda sifatsiz edi. Bunga yuqorida sanab o'tilgan omillardan tashqari operatorlarning tajribasizligi va o'zbo'larchilik, Davlat kinostudiyalari mutassaddilarining o'z ishlariga panja ostidan qarashlari ham sabab bo'lgan.

So'nggi 10 yil davomida vatanimizda tajribali, yoshi ulug' rejissyorlar va operatorlardan tashqari bir nechta yosh ijodkorlar ham tarixiy, tarixiy-sarguzasht, tarixiy-biografik yo'nalishlarda filmlar yaratishga urindilar. Bu filmlarning barchasini yuqori sifatli deb bo'lmasada yosh kinoijodkorlar tomonidan jahon andozalariga javob beruvchi yangicha uslubdagi tarixiy filmlarni yaratishga urinishmoqda. Bunga misol qilib 2016 yilda yosh rejissyor A.Bekturdiev va operator R.Murodovlar tomonidan suratga olingan "Oyqiz ertagi" filmini misol qilish mumkin.

Umuman olganda filmni juda mukammal deb bo'lmaydi. Biroq, o'zining tasviriy yechimi, qo'llanilgan texnologiyalari bilan G'arb kinosida yaratilgan filmlarga jiddiy raqib bo'la oladi. Tarixiy-sarguzasht janrdagi "Oyqiz ertagi" filmining asosiy kamchiligi filmning ssenariysi va rejissurasidadir.

